



UDK: 93/94

*Hikmatilla ABDINABIYEV,*  
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi  
E-mail: [habdinabiyev@gmail.com](mailto:habdinabiyev@gmail.com)

*O'zMU professori A.Yermetov taqrizi asosida*

## ORGANIZATION AND ACTIVITY OF THE CENTER ON THE LATEST HISTORICAL ISSUES OF UZBEKISTAN Annotation

This article provides information about the goals of creating the Center for Contemporary History of Uzbekistan, its tasks and activities from the time of its creation to the present.

**Key words:** Coordination and Methodological Center for the Contemporary History of Uzbekistan, Public Council for the Contemporary History of Uzbekistan, topical issues of the contemporary history of Uzbekistan

## ОРГАНИЗАЦИЯ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ЦЕНТРА ПО НОВЕЙШИМ ИСТОРИЧЕСКИМ ПРОБЛЕМАМ УЗБЕКИСТАНА Аннотация

В данной статье представлена информация о целях создания Центра новейшей истории Узбекистана, его задачах и деятельности со времени его создания и по настоящее время.

**Ключевые слова:** Координационно-методический центр по вопросам новейшей истории Узбекистана, Общественный совет по новейшей истории Узбекистана, актуальные вопросы новейшей истории Узбекистана.

## O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIX MASALALARI BO'YICHA MARKAZINING TASHKIL ETILISHI VA FAOLIYATI Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekistonning eng yangi tarix masalalari bo'yicha markazining tashkil etilishidan maqsad, uning vazifalari va tashkil etilgandan hozirgi vaqtgacha bo'lgan davrdagi faoliyati haqida ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi, O'zbekiston eng yangi tarixining dolzarb masalalari.

**Kirish.** Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng tarix fanini yanada chuqur o'rganib, izchillik va xolisona yoritish uchun Fanlar Akademiyasi tarkibida bir qancha tarix masalalari bilan shug'ullanuvchi ilmiy-tadqiqot markazlarini tashkil etilganligi bizga ma'lum. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning qaroriga asosan Jamoatchilik kengashining ishchi organi sifatida tashkil etilgan edi. Tarixini zamonaviy nazariy-metodologik, fanlararo yondashuvlarga, tarixiylik va xolislik tamoyillariga asoslangan holda tizimli o'rganishni tashkil etish, O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha dolzarb muammolarni ishlab chiqish, shuningdek, buyuk tarixiy-madaniy merosga ega bo'lgan va jahon sivilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo'shgan o'zbek xalqining tarixiy o'tmishi va bugungi kuniga baho berishda bir yoqlama yondashuvlarga, aqidaparastlikka yo'l qo'ymaslik ishlarini muvofiqlashtirish, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning «o'zbek modeli» mohiyati va mazmunini, jamiyatda barqarorlikni, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni saqlash bo'yicha keng ko'lamlilikni, hozirgi dunyoda O'zbekistonning roli va o'rnini chuqur o'rganish va yaqqol ochib berish, ilmiy, o'quv, o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini tayyorlash va chop etish ishlarini muvofiqlashtirish, ularda O'zbekistonning eng yangi tarixini umumjahon va mintaqaviy jarayonlar bilan, shuningdek, hozirgi O'zbekiston hududida shakllangan xalqlar va davlatlar sivilizatsiyasining tarixiy-madaniy merosi bilan uzviy bog'liqlik holda ko'rib chiqishni ta'minlash, O'zbekistonning tarixi bo'yicha ilmiy, o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, o'quv dasturlari monitoringini olib borish, ushbu

sohada ilmiy-tadqiqot, o'quv-metodik ishlarning sifatini yaxshilash bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va joriy etish, fuqarolarda tarixiy xotira, milliy o'zlikni anglash, yuksak ma'naviyat, xalqning tarixiy an'analari, madaniy merosiga hurmat, mamlakatimiz mustaqillikka erishganli-gining buyuk tarixiy ahamiyatini anglash kabi fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali oshirib borishga ko'maklashish kabi bir qator ustuvor vazifalar yuklatilgan bo'lib hozirgi kunda ushbu vazifalar bilan shug'ullanib kelmoqda. Shuningdek O'zbekiston tarixi bo'yicha zamonaviy chet el ilmiy va o'quv adabiyotlarini o'rganishga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish, hozirgi O'zbekistonning tarixiy o'tmishi, sotsial-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi, mamlakatda olib borilayotgan demokratik islohotlar to'g'risidagi xolis axborotni keng xalqaro jamoatchilikka yetkazish maqsadida faoliyati qaytadan tashkil qilindi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2789-sonli qaroriga muvofiq Markaz Fanlar akademiyasi tasarrufiga o'tkazilib, Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashining ishchi organi etib tashkil etildi. Unga quyidagi asosiy vazifalar yuklanadi:

Jamoatchilik kengashi faoliyatini ilmiy-metodik ta'minlash, O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganish bo'yicha dolzarb masalalarni ishlab chiqishni tashkillashtirish, ilmiy-tadqiqot, o'quv-metodik ishlarning sifatini yaxshilash chora-tadbirlari tizimini tayyorlash va amalga oshirish, o'quv, ilmiy-metodik adabiyotlarni tayyorlash va chop etish, shuningdek, Jamoatchilik kengashiga yuklangan boshqa

vazifalarni bajarish, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha o'quv, o'quv-metodik adabiyotlar yaratish yuzasidan tanlovlar o'tkazishda ishtirok etish, davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida O'zbekistonning eng yangi tarixi tadqiqotlari bo'yicha ilmiy-texnika loyihalari tanlovlarini vazifalari ro'yxatiga kiritish uchun takliflar ishlab chiqish hamda ularni ko'rib chiqish uchun O'zbekiston Respublikasi Innovasion rivojlanish vazirligiga kiritish, O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish yuzasidan tadqiqotlar olib borish, har yili ushbu sohada tadqiqotlar va ta'lim berish darajasini oshirishga, zamonaviy O'zbekiston, uning tarixiy o'tmishi to'g'risidagi ishonchli axborotni xalqaro jamoatchilikka yetkazishga yo'naltirilgan, O'zbekiston eng yangi tarixining dolzarb masalalari bo'yicha o'tkaziladigan xalqaro va respublika konferensiya va seminarlari ro'yxatini belgilangan tartibda ishlab chiqish kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi. Ilm-fanni davlat va xususiy sektor tomonidan ham qo'llab-quvvatlash yildan yilga ortib bormoqda 2025 yilga qadar ilm-fanni umumiy moliyalashtirish hajmida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga xususiy sektor tomonidan ajratiladigan mablag'lar ulushini amaldagi 8 foizdan 20 foizga, 2030-yilgacha esa 30 foizga yetkazish belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning 2017 yil 30 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzurida O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 3105-sonli qarori bilan Markaz Fanlar akademiyasi huzurida o'z faoliyatini boshladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz O'zbekistonning eng yangi tarixini tadqiq etish va o'qitish samaradorligini, mazkur sohada ilmiy, o'quv-metodik adabiyotlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifatini oshirishga ko'maklashish maqsadida tashkil etilgan hamda jamoatchilik asosida faoliyat yurituvchi idoralararo ilmiy-muvofiqlashtirish va maslahat organi maqomidagi O'zbekistonning eng yangi tarixi bo'yicha Jamoatchilik kengashining ishchi organi hisoblanadi. "O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari" jurnalini "O'zbekistonning eng yangi tarixining dolzarb masalalari" nomi bilan belgilangan tartibda qayta ro'yxatdan o'tkazilib sohaga doir ma'lumotlar bilan to'ldirildi.

Markazni bosma va kitob mahsulotlari tarixiy, huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy nashrlar nazorat nusxalarini bepul oladigan tashkilotlar ro'yxatiga kiritildi. Markaz o'z faoliyati doirasida xorijiy mamlakatlarning ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va xalqaro jamg'armalar bilan hamkorlik qilib, "O'zbekiston eng yangi tarixining dolzarb masalalari" jurnalini nashr qildi. Jurnalda O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida sodir bo'lgan tarixiy voqea va jarayonlarga bag'ishlangan, ularning mazmun-mohiyatini yorituvchi tahliliy materiallarni e'lon qilib kelmoqda. Shuningdek, nashrda eng yangi tarixni tadqiq etishning xorij tajribasini o'rganish masalalari ham o'rin oladi. Maqolalar tadqiqotchilar, o'qituvchilar va talabalarga O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganishga ilmiy-metodik jihatdan ko'mak beradi, fanlar sohasida olib borilayotgan hamda XX– XXI asrlarda O'zbekiston va xorij mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy rivojlanishining dolzarb masalalari bilan bog'liq fundamental tadqiqotlarning natijalari chop etiladi. Shuningdek, yosh tadqiqotchilarni sohaga jalb etish maqsadida ularning o'rtacha yoshini 45ga 2030 yilga kelib esa 39 ga yetkazish belgilab berilgan.

Markaz O'zbekistonning eng yangi tarixining dolzarb masalalari bo'yicha xalqaro va respublika konferensiyalari, seminarlarni tashkil qiladi hamda o'tkazib kelmoqda, o'quv, ilmiy-metodik adabiyotlar chop etyapti, Markazda Tarix bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy va o'quv-metodik adabiyotlarni ekspertizadan o'tkazish, ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va o'quv, ilmiy-metodik adabiyotlarni tayyorlash; O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha xorijiy tadqiqotlar monitoringi va tahlili bo'limlari faoliyat yuritadi. 2025 yilga qadar ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar sohasidagi texnologik innovatsiyalarga xarajatlarning umumiy hajmida tashkilotning o'z kuchi bilan bajarilgan texnologik innovatsiyalarga xarajatlarning ulushini 3,5 baravarga, 2030-yilgacha esa 9 baravarga oshirish belgilangan. "Poytaxt" biznes markazida "Markaziy Osiyodagi etnosiyosiy jarayonlar umumjahon sotsiomadaniy vaziyati kontekstida" mavzusida davra suhbat o'tkazilib mavzuga doir fikrlar almashinilgan edi. Mazkur tadbir Konrad Adenauer jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti va O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz tomonidan tashkil etildi, davra suhbat davomida O'Z FA Tarix instituti katta ilmiy xodimi Rinat Shig'abdinov "O'zbekiston diasporalari tarixiga doir (tatar va boshqird diasporalari misolida)" mavzusida ma'ruza qildi. Shuningdek, tarix fanlari nomzodi Alisher Sobirovning "O'zbekistondagi etnosiyosiy vaziyatning yangi palitrasi", t.f.n Shuhrat Muhamedovning "O'zbekiston mintaqaviy kesimidagi etnomadaniy jarayonlar (Buxoro viloyati misolida)" hamda f.f.n. Ravshan Nazarovning "Etnosiyosiy va sotsiomadaniy jarayonlardagi zamonaviy jahon tendensiyalari"ga bag'ishlangan ma'ruzalari tinglandi. 2017 yilning 15 sentyabr kuni O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markazda Vivekananda xalqaro fondi vakili doktor Rashmini Koparkar (Hindiston) bilan birgalikda "Eng yangi tarix sohasida hamkorlik istiqbollari" mavzusida davra suhbat o'tkazilib, davra suhbatida Hindistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan zamonaviy munosabatlari haqida fikr almashildi, eng yangi tarixni o'rganish sohasida hamkorlik qilish, jumladan, qo'shma konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlarini o'tkazish masalalari muhokama qilindi. 2018 yilning 26 fevralda O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazda O'zbekiston-Rossiya hamkorligiga oid davra suhbat tashkil etildi. Tadbirda O'ZR FA Tarix instituti, Rossiyaning birinchi Prezidenti B.N.Yelsin nomidagi Ural federal universiteti hamda Toshkentdagi Rossiya fan va madaniyat markazi vakillari qatnashdi. Davra suhbat davomida O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz direktori, t.f.d., prof. M.A.Raximov, O'ZR FA Tarix instituti direktori, t.f.d. R.M.Abdullayev, f.f.n. R.R.Nazarov tomonidan O'zbekistonning Rossiya bilan hamkorlik munosabatlari yangi bosqichga ko'tarilganligi va u yanada rivojlanib borayotganligi ta'kidlandi. Ural Federal universitetidan qatnashayotgan t.f.n., dots. R.T.Ganiyev, f.f.n. K.Pogorelskiy Rossiyada, umuman, jahonda Ipak yo'li brendi katta qiziqish uyg'otayotganligini qayd etishar ekan, fan va ta'lim sohasida ham hamkorlikni yanada kengaytirish zarurati haqida fikr-mulohazalar bildirishdi. Ilmiy tashkilotlarda faoliyat ko'rsatayotgan ilmiy darajali tadqiqotchilarning o'rtacha yoshi 51 yoshni tashkil etayotganligi yoshlarni ilm-fanga jalb etmoqda. Albatta yoshlarni ilm-fanga yo'naltirish bugungi kunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi. Shu o'rinda "Bizning vazifamiz - to'plangan tajriba va ilg'or xalqaro amaliyotga suyanan holda, o'zimizning taraqqiyot va yangilanish modelimizni qat'iy amalga oshirishdan iborat. Shu borada prezidentimizning yaqin va o'rta muddatga belgilangan marralarga erishish uchun qat'iyat bilan harakat qilishimiz zarur degan fikrlari o'rinlidir. Jamiyatda ilm-fan qanchalik

tez taraqqiy etsa shuncha jamiyatning olg'a borish jarayoni shuncha tezlashadi.

Xulosa qilib aytganda markazning tashkil etilishi bilan birgalikda tarix fanida o'z yechimini kutayotgan muammolarni yechishga qaratilgan ilmiy seminarlar konfrensiyalar chaqirilmoqda, markaz faoliyatida ham tizimli o'zgarishlar amalga oshirilganligini ko'rib o'tdik. Ilm-fanning

rivojlanishining asosiy bosqichi sifatida davlatimiz 2017 yildan keying davrda ilm-fanni yuksaltirishning yangi davri bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yuritilayotgan islohotlarning mohiyati ham ilm-fan, ta'lim tizimidagi tarkibiy o'zgarishlarga alohida e'tibor qaratilganini ko'rishimiz mumkin, albatta bu islohotlar o'z samarasini bermoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev.Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq.T."O'zbekiston" NMIU. 2016 y.20- bet
2. Oliy va o'rta maxsus ta'limini tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risidagi 2012 27 yanvardagi PQ-1694
3. Fanlar akademiyas faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida 2017 yil 7 fevral PQ-2789 son.
4. Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi



UDK: 347 (09):355(09):331.6(584.4)

Avaz YERMETOV,  
O'zbekiston Milliy universiteti professori, tarix fanlari doktori  
E-mail: avazbek.ermetov@mail.ru

O'zMU professori, t.f.d., Urakov taqrizi asosida

## O'ZBEKISTON HUDUDIDA ICHKI ISHLAR ORGANLARI TASHKIL ETILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekiston hududida sovet hukumatining o'rnatilishi, o'lkada ichki ishlar organlarining tashkil etilishining huquqiy asoslari, ularning sovet tuzumini mustahkamlashdagi o'rni, O'rta Osiyola milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilganidan so'ng Turkiston ASSR, BSSR va XSSRlari faoliyat yuritgan ichki ishlar idoralarining birlashtirilishi, ularga yuklatilgan vazifalar, vakolat va majburiyatlar, shuningdek, tizim boshqaruvidagi o'zgarishlar va hududiy bo'linish printsiplari birlamchi manbalar asosida tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** Respublika, davlat, tashkilot, hukumat, tizim, boshqaruv, IIXK, militsiya, hujjat, qonun, qaror, farmoyish, nizom, buyruq, huquq, hudud.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ОРГАНИЗАЦИИ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В статье рассматриваются установление советской власти на территории Узбекистана, правовые основы организации органов внутренних дел в стране, их роль в укреплении советского строя, объединение органов внутренних дел, действовавших в Туркестанской АССР, БССР и УССР после проведения национально-территориального размежевания в Средней Азии, возложенные на них задачи, полномочия и обязанности, а также принципы изменения в системе управления и территориальном делении были проанализированы на основе первоисточников.

**Ключевые слова:** Республика, государство, организация, правительство, система, администрация, НКВД, милиция, документ, закон, решение, указ, приказ, право, территория.

## THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF THE ORGANIZATION OF INTERNAL AFFAIRS BODIES ON THE TERRITORY OF UZBEKISTAN

Annotation

The article examines the establishment of Soviet power on the territory of Uzbekistan, the legal foundations of the organization of internal affairs bodies in the country, their role in strengthening the Soviet system, the unification of internal affairs bodies operating in the Turkestan ASSR, the BSSR and the Ukrainian SSR after the national-territorial demarcation in Central Asia, their tasks, powers and duties, as well as The principles of change in the management system and territorial division were analyzed on the basis of primary sources.

**Key words:** Republic, state, repression, organization, government, system, administration, NKVD, police, document, law, decision, decree, order, law, territory.

**Kirish.** 1917 yil 25 oktyabrda Petrogradga Oktyabr to'ntarishi amalga oshirilib, bolsheviklar hokimiyatni egallaganidan keyin, bu voqealarning uzviy davomi sifatida noyabrda Toshkent Soveti Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilganini e'lon qildi. Sovetlar o'zlarining boshqaruv doirasini kegaytirish maqsadida Yangi Termiz va Kattaqo'rg'onda, Yangi Buxoro (Kogon), Samarqand va Namanganda ham hokimiyatni o'z qo'liga oldi [1]. Turkiston o'lkasida hokimiyat bolsheviklar qo'liga o'tishi bilan Muvaqqat hukumatning barcha bo'g'inlari tugatilib, o'rniga davlat hokimiyati va jazo organlari tashkil etilib, sovet boshqaruv tizimi o'rnatildi [2].

1917 yil 28 oktyabrda sovet hukumatining vakolatiga binoan, RSFSR Ichki ishlar xalq komissarligi qabul qilgan "Ishchi militsiyasi to'g'risida"gi qaror yangi turdagi militsiya tashkil etilganligi haqidagi birinchi ko'rsatma edi [3]. Qarorda barcha ishchi va soldat deputatlari Sovetlariga inqilobiy intizom o'rnatish va tartibni saqlash uchun ishchi militsiyalari ta'xis etish to'g'risida ko'rsatma berilib, bu organ faqat Sovetlar ixtiyorida bo'lishi ta'kidlangan edi. RSFSR IIXKning "Ishchi militsiyasi to'g'risida"gi qarori butun mamlakatda

sovet hokimiyati o'rnatilishini to'la-to'kis ta'minlash va proletariat diktaturasini mustahkamlashga qaratilgan edi [4]. Ishchi-dehqon militsiyasini tashkil etish vazifasini Sovetlar zimmasiga yuklar ekan, IIXKning qarori jamoat tartibini muhofaza qilish idorasi va sovet tuzumining himoyachisi bo'lmish sovet militsiyasi tashkil etilganligini huquqiy jihatdan mustahkamlar edi [5].

1917 yil 15-22 noyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan Turkiston sovetlarining III o'lka s'ezdida boshqaruv tizimini yuzaga keltirish, joylarda hokimiyat tuzish va eng asosiysi, o'lka hokimiyatini tashkil etish masalalari muhokama etildi. Natijada Turkistondagi oliy hokimiyat organi Turkiston Xalq Komissarlari Soveti tashkil etildi [6].

1917 yil 26-28 noyabrda Qo'qon shahrida o'tkazilgan Turkiston o'lka musulmonlarining IV qurultoyida tuzilgan Turkiston Muxtoriyati hukumati 1918 yil fevral oyida bolsheviklar tomonidan tugatilganidan so'ng [7], shu yil 20 aprel – 1 may kunlari Toshkentda Turkiston ishchi, soldat, musulmon va dehqon deputatlari sovetlarining V o'lka s'ezdi bo'lib o'tdi va 30 aprelda "Turkiston Sovet Federativ Respublikasi to'g'risida"gi Nizom qabul qilindi. Unga ko'ra,

Turkiston o'lkasining hududi "Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Sovet Respublikasi" deb e'lon qilinib, uning tarkibiga Xiva va Buxorodan tashqari, Turkistonning barcha hududi kiritildi. Turkiston ASSR muxtoriyat tarzida boshqarilib, uning barcha faoliyati RSFSR hukumati bilan muvofiq xolda olib borilardi. Turkiston Sovetlarining VI syezdida (1918 yil 5-14 oktyabr) RSFSR Konstitutsiyasi asosida "Turkiston ASSR Konstitutsiyasi" qabul qilindi. Konstitutsiyada mudofaa, tashqi aloqalar, pochta, telegraf, dengiz ishlari, temir yo'l, bo'xona, savdo, sanoat va moliya masalalari Federal hukumat ixtiyorida qoldirildi, ya'ni davlat boshqaruvining barcha tarmoqlari qonuniy ravishda Markazga bo'ysundirildi.

"O'z taqdirini o'zi belgilash"ning sovetlarga xos varianti amalda avvalboshdan bir imperiyani uning mutlaq markazlashganini saqlagan holda boshqa bir imperiyaga aylantirishga, unitar davlat yaratishga qaratilgan edi [8]. Shu tariqa Markazdagi bolsheviklar chekka o'lkalar, shu jumladan, Turkistonda ham o'z hukumatini mustahkamlashga kirishdi. O'lkada sovet hokimiyatini mustahkamlash maqsadida bolsheviklar sovet davlat boshqaruvining ajralmas qismini tashkil etuvchi davlat apparatini shakllantirishga astoydil kirishdi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Sovet davrida O'zbekiston hududida sovet hokimiyatining o'rnatilishi va mustahkamlanishi, shuningdek, o'lkada ichki ishlar organlarining tashkil etilishi bilan bog'liq masalalar bir qator o'zbekistonlik olimlar, xususan, Q.Rajabov, M.Haydarov, D.Alimova, B.Rasulov, M.Abdullaev, T.Otajonov, T.Jalilov va boshqalarning qator asarlari hamda maqolalarida tahlil qilingan. Shu o'rinda qayd etish lozimki, respublikada faoliyat yuritgan ichki ishlar organlarining tarixi mustaqillik yillarida alohida tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot olib borish jarayonida ilmiy muammoga sivilizatsion yondashuv asosida tarixiy-qiyosiy, muammoli-xronologik, ob'ektivlik, tizimli tahlil kabi usullar yordamida O'zbekiston hududida ichki ishlar organlari tashkil etilishining nazariy-huquqiy asoslari birlamchi hujjatlar tahliliga tayangan xolda atroflicha tadqiq etildi.

**Tahlil va natijalar.** Sovet hukumati o'lkadagi ta'sirini har tomonlama mustahkamlashi jarayonida 1918 yil sentyabrda Turkistonda (sovet davlatining boshqa hududlarida bo'lgani singari) Butunrossiya favqulodda komissiyasining bo'limlari tashkil etildi [9]. Davlat xavfsizligini ta'minlash vazifasi yuklatilgan mazkur tashkilot o'z faoliyati davomida jamiyatda yuzaga kelgan turli ko'rinishdagi ziddiyatli holatlar, sovet hokimiyati [10] va inqilobiy qarashlarga qarshi bo'lgan harakatlarni kuch ishlatib, terror [11] yo'li bilan bostirib, boshqaruvning o'ziga xos usulini ta'minlagan. Masalan, Butunrossiya favqulodda komissiyasining faqatgina 1918 yilning ikkinchi yarmidagi faoliyati davomida mamlakat bo'yicha 50.000 nafar odam ta'qib ostiga olinib, otib tashlangan edi [12].

Bu davrda Sovet Rossiyasi shaharlarida bo'lgani kabi, Turkistonda ham Ishchi-dehqon militsiyasini tashkil etish ishlari yanada jadallashtirildi. 1918 yil 8 yanvarda Turkiston o'lkasi Fuqaro-ma'muriy qism xalq komissari Petrovskiy ishchi va dehqon Sovetlariga "Toshkent xalq militsiyasiga kirishni istovchilar uchun ro'yxat tuzish"ni taklif etdi. Uning maktubida shunday deyiladi: "Asosiy xizmatga faqat o'tmishi benuqson bo'lgan kishilar qabul qilinadi. Har bir nomzod haqida qisqacha tarjimai xol bo'lishi kerak" [13].

1918 yil 29 yanvarda Turkiston o'lkasi XKSning 17-sonli "Zahira kadrlarini yaratish va militsiyani qayta tashkil etish to'g'risida"gi buyrug'i e'lon qilindi. Buyruqni bajarish fuqaro-ma'muriy qism komissari zimmasiga yuklatilgan edi. Bu paytga kelib Muvaqqat hukumat davrida (1917 yil mart-oktyabr) tuzilgan eski harbiy va fuqaro militsiyasi uzil-kesil

bekor qilindi. Buyruqda ma'muriyat va temir yo'ldagi qo'mitalar zarur hollarda yordam so'rab, qizil gvardiya otryadlariga murojaat qilishlari ko'zda tutilgan edi. Yangi militsiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlash ishiga rahbarlik qilish uchun 1918 yil 30 yanvarda "Turkiston o'lkasi shahar va tumanlari militsiya inspektori boshqarmasining bo'limi" tashkil etildi [14]. Militsiya inspektori vazifasini vaqtincha bajaruvchi qilib A.Baranovskiy tayinlandi. Inspektor o'lka xududi doirasida militsiyaga umumiy rahbarlikni amalga oshirar, militsiya muassasalarini tekshirar va taftish qilar, militsiya xodimlarining bir viloyatdan ikkinchisiga o'tishlarini boshqarar edi [15].

1918 yilning fevral oyida barcha uezd, shahar hamda volostlarda militsiya idoralari tashkil etila boshlandi [16]. Butun mamlakatdagi kabi Turkistonda ham sovet militsiyasi yangicha huquq-tartibotni himoya qilishga da'vat etilgan ishchi va dehqonlarning sinfiy tashkiloti sifatida bunyod etildi. Eski mutaxassislardan foydalanishga yo'l qo'yilgan harbiy, moliyaviy va boshqa idoralardan farqli o'laroq, militsiya shaxsiy tarkibiga avval boshidanoq yakka tartibda ishga qabul qilish usuli joriy qilingan edi.

1918 yil 13 dekabrda "Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Respublikasi Ishchi-dehqon sovet militsiyasi to'g'risidagi Nizomi" ishlab chiqildi hamda Turkiston ASSR MIK tomonidan tasdiqlandi [17].

Bu paytda huquqiy jihatdan hamda vakolatlari doirasida Turkiston ASSR Ichki ishlar va Tashqi ishlar xalq komissarliklari hamda uning qoshidagi hay'at Respublika militsiyasiga umumiy rahbarlik qilardi. Respublika militsiyasining bosh instruktori militsiya ishlari bilan bevosita shug'ullanardi. U o'z mahkamasi bilan Ichki ishlar va Tashqi ishlar xalq komissarligi tarkibiga kiritilgan edi.

1919 yil 26 aprelda (boshqa bir hujjatda yozilishicha 1919 yil iyulda) Turkiston ASSR Ichki ishlar xalq komissarligi tarkibida respublika militsiyasi ishiga rahbarlik qiladigan Ishchi-dehqon militsiyasi Bosh boshqarmasi ta'sis etildi va 1920 yil 21 yanvarda unga bolshevik Ya.Sirul boshliq etib tayinlandi [18].

1919 yil 26 iyunda Turkiston ASSR IIXK "Rossiya Sovet Federatsiyasining Turkiston Respublikasi Ishchi-dehqon sovet militsiyasi to'g'risidagi Nizom"ni qabul qildi [19]. Nizom asosida shahar, uezd, shuningdek, jinoiy qidiruv va temir yo'l militsiyasi Militsiya Bosh boshqarmasiga bo'ysundirilib, uning roli mustahkamlangan edi. Nizomda sovet militsiyasining burchi va asosiy vazifasi ishchilar sinfi va kambag'al mehnatkash xalq manfaatlarini hamda inqilobiy tartib va yangi tuzumni muhofaza qilishdan iborat, deb belgiladi [20]. Shu tariqa o'lkada faoliyatini boshlagan ishchi-dehqon militsiyasi sovet tuzumini himoya qiluvchi sinfiy tashkilot sifatida tuzildi [21].

1924 yil oxirlarida O'rta Osiyo respublikalarida o'tkazilgan milliy-hududiy chegaralanishdan so'ng, bu hududlarda faoliyat yuritgan uchta respublika tugatilib, 1925 yil fevralda O'zbekiston SSR tashkil etildi. Natijada Turkiston ASSR, XSSR va BSSRlari ichki ishlar idoralari huquqiy va hududiy jihatdan O'zbekiston SSR IIXK tasarrufiga o'tkazildi.

Jumladan, 1924 yil 14 dekabrda O'zbekiston SSR militsiyasi boshlig'ining 16-sonli buyrug'i e'lon qilindi. Buyruqda "Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikalari hududlarida faoliyat yuritgan ichki ishlar organlari O'zbekiston SSR militsiyasi tasarrufiga o'tkazilgan ko'rsatilgan bo'lib, endilikda militsiya organlarining tarkibi butunlay qayta ko'rib chiqilishi zarurligi, xodimlarga militsiya saflarida xizmat olib borish qoidalari va jamiyatda tartib-intizomni ta'minlash borasida tegishli kurslar tashkil etish kerakligi, shuningdek, tashkilotda mustahkam tizimli tartib o'rnatish muhimligi" belgilab berildi [22]. Turkiston ASSR IIXKga tegishli huquqiy normativlar, nizomlar, yuqoridan chiqarilgan qaror, farmoyish va

ko'rsatmalar asosida belgilangan vakolat hamda vazifalar o'zaro muvofiqlashtirildi [23]. Natijada militsiya va jinoyat qidiruv bo'limlarining faoliyati ustidan umumiy nazorat qilish O'zbekiston SSR Ichki Ishlar Xalq Komissarligiga yuklatildi. Shunday bo'lgani holda, O'zbekiston SSR IXX tomonidan qabul qilingan qarorda Turkiston ASSR IIX komissari hamda Buxoro va Xorazm Respublikalari xalq nozirlari vaqtincha o'z o'rnida qoldirildi. O'zbekiston SSRda tashkil etilgan "Militsiya va jinoyat qidiruv" bo'limiga 7 ta viloyat bo'linmalari, bitta tuman shahar (Toshkentning eski shahrida) bo'linmasi, 13 ta tuman bo'linmalari va Samarqand viloyatining vokzal oldi bo'linmasi bo'ysunar edi [24].

O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligining sovet boshqaruv tizimidagi o'rni va huquqiy maqomi haqida shu paytda Ichki ishlar xalq komissari lavozimida ishlagan Raxmat Rafikning maqolasi 1925 yil 22 aprelda e'lon qilindi. Maqola "O'zbekistonning Ichki ishlar komissarligi va uning Sho'ro tuzilishidagi usuli" deb nomlanib, unda o'sha davrda ichki ishlar komissarligiga yuklatilgan vazifa va vakolatlar, komissarlikning yangi hukumat tarkibidagi o'rni haqida quyidagi qimmatli ma'lumotlar keltiriladi: "Ichki ishlar komissarligi Sho'ro tuzilishi usulida Sho'ro qonunlarini umumiy sharoit asoslariga muvofiq amalga qo'yadigan quvvatga molik bir muassasadir. Ichki ishlar komissarligi o'z ahamiyaticha hukumat tashkiloti bo'lsa ham, shubhasiz, O'zbekiston, Markaz ijroqo'm idora tashkilotlari deb hisoblanadi. Ichki ishlar komissarligining vazifasi mahallalar bilan qatnashish va bog'lanish barobarida, mahalliy muassasalarga yuklatilgan vazifalarda idora qilish qoidalarini bajarmoq, ommani sho'ro davlat tuzilishi, sho'ro jamiyatlari bilan oshno etmak. Aholini sho'rolashtirish asoslari bilan bog'lamoqdur. Ichki ishlar xalq komissarligi Markaziy Ijroiya Qo'mitasining ijrochi tashkilotlaridan bo'lib, huquqiy jihatdan Sho'ro hukumatining qarorlarini bajaradi [25]".

Maqolada keltirilgan fikrlar shu jihati bilan qimmatli, unda birinchi marta ichki ishlar xalq komissarligiga yuklatilgan vazifa va vakolatlar, ularning faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlar keltiriladi, bunday materiallar boshqa arxiv hujjatlarida ham uchramaydi. Shu o'rinda qayd etish joizki, maqolada komissarlikning boshlig'i

tomonidan ichki ishlar komissarligiga o'sha davr talabi va nuqtayi nazaridan to'g'ri baho beriladi.

**Xulosa.** O'lkada Oktyabr to'ntarishi amalga oshirilgandan so'ng Turkistonda o'rnatilgan sovet hukumati o'zining hokimiyatini har tomonlama mustahkamlay boshladi. Asosiy mazmuni mexnatkash xalq manfaatlarini himoya qilishdan iborat deb tartib o'rnatgan yangi tuzum o'lkada inqilob qununlariga huquq-tartibotga qat'iy amal qilishini ta'minlovchi maxsus organlarni tashkil eta boshladi. Sovet hukumati o'rnatilgan barcha hududlarda RSFSR IIXKning ko'rsatmasiga binoan militsiya organlarini tashkil etish ishlari jadallashtirilib, jumladan, Turkistonda ham bolsheviklar tomonidan bunday tadbirlar amalga oshirildi.

Turkistondagi bolsheviklar hukumati o'zining davlat hokimiyat organlari va boshqaruv apparatini har tomonlama mustahkamlash jarayonida, bu davrda O'rta Osiyoda mustaqil faoliyat yuritayotgan Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududlarida ham sovet hukumatini o'rnatish ishlarini jadallashtirdi. 1920 yilda Xiva xonligi va Buxoro amirligi hududlarida sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng, bu hududlarda ham ichki ishlar idoralari tashkil etildi. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilgandan so'ng, bu hududlarda faoliyat yuritgan respublikalar tugatilib, O'zbekiston SSR tashkil etildi. Natijada Turkiston ASSR, XSSR va BSSR hududlarida faoliyat yuritgan ichki ishlar idoralari huquqiy va hududiy jihatdan O'zbekiston SSR IIXK tasarrufiga o'tkazildi.

Tadqiq etilayotgan yillardagi xususiyatlardan yana biri bu ichki ishlar organlari boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar bo'lib, jumladan, uning faoliyati avval XKS tarkibidagi Markaziy ma'muriy boshqarmaga, so'ng Birlashgan Davlat siyosiy boshqarmasiga bo'ysundirildi. Undan keyin yana IIXK qayta tashkil etilganidan so'ng, militsiya organlari uning tarkibida boshqarma sifatida faoliyat yuritdi. Ichki ishlar xodimlarining faoliyatiga oid hujjatlarining qabul qilinishi barobarida, ular tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan qonunbuzarliklar va jinoyat ishlar, jinoyatlarning tarkibi, holati hamda ular yuzasidan ko'riladigan intizomiy, ma'muriy va jinoyat javobgarliklar to'g'risida tegishli qonun hujjatlari ham qabul qilindi.

#### ADABIYOTLAR

1. Пасилов Б. Идеология и практика становления тоталитарной государственности в Туркестане. // O'zbekiston tarixi. №3. 1999. - Б. 46.
2. Ражабов Қ.К. Мустақил Туркистон фикри учун мужодалалар (1917 – 1935 й.). - Тошкент: Ўзбекистон, 2000. - Б. 4 – 5.
3. Джалилов Т. Верные отчизне. (1917-1924 гг.). - Ташкент: Узбекистан, 1968. -С.19.
4. O'zMA, 25-fond, 1-ro'yxat, 6-ish, 65-varaq.
5. Джалилов. Из истории рабоче – дехканской милиции Узбекистана. - Ташкент: Узбекистан, 1969. - С. 36-38.
6. O'zMA, 25-fond, 1-ro'yxat, 6-ish, 1-varaq.
7. Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти. - Тошкент: Маънавият, 2000.
8. Ўзбекистон давлатчилиги тарихи: (Очерклар) \ Масъул мухаррирлар Д.А.Алимова, Э.В.Ртвеладзе. - Тошкент: Шарк, 2001. - Б.203.
9. O'zMA, 17-fond, 1-ro'yxat, 7-ish, 109-varaq.
10. Шамбаров В. Государство и революция. - Москва: Алгоритм, 2001. - С.80.
11. Бжезинский З. Большой провал. «Агония коммунизма». Квинтэссенция. Философский альманах. - Москва: Политиздат, 1990. - С. 258.
12. Шамбаров В. Окультизмные корни Октябрьской революции. - Москва: Алгоритм; Эксмо, 2006. - С.373..
13. Джалилов Т. Верные Отчизне (1917-1924). -Ташкент: Узбекистан, 1968. - С.22.
14. O'zMA, 39-fond, 1-ro'yxat, 39-ish, 1-varaq.
15. O'zMA, 39-fond, 1-ro'yxat, 72-ish, 1-2-varaqlar.
16. O'zMA, 25-fond, 1-ro'yxat, 35-ish, 66-varaq.
17. O'zMA, 39-fond, 1-ro'yxat, 644-ish, 39-40-varaqlar.
18. O'zMA, 39-fond, 1-ro'yxat, 106-ish, 6-varaq.
19. O'zMA, 39-fond, 1-ro'yxat, 103-ish, 1-varaq; Положение о Советской Рабоче-Крестьянской милиции Туркестанской Республики Российской Советской Федерации. (Нашр этилган жойи ва вақти кўрсатилмаган). - С.1-13.
20. O'zMA, 39-fond, 1-ro'yxat, 6-ish, 72-varaq.
21. Петров Г. Қизил милициямизнинг 8 йиллиги. / Қизил Ўзбекистон, 1926 йил 28 февраль, 49-сон.
22. Andijon VDA, 46-fond, 1-ro'yxat, 89-ish, 75-76-varaqlar.
23. O'zR PAA, 58-fond, 1-ro'yxat, 774-ish, 163-164-varaqlar.
24. Халқ хизматига 75 йил. Масъул мухаррир Ф.Рахимов. - Тошкент: Ўзбекистон. 1992. - Б. 48.
25. Раҳмат Рафик. Ўзбекистоннинг Ички ишлар комиссарлиги ва унинг Шўро тузилишидаги усули. / Қизил Ўзбекистон, 1925 йил 22 апрель, 108-сон.



UDK: 001.891.32 (09) (092)

*Saxovat ZAXIDOVA,*  
*O'zbekiston milliy universiteti dotsenti, t.f.n.*  
*E-mail:sakhovat\_2009@mail.ru*

*O'zMU professori v.b., t.f.d. M.Hamidova taqrizi asosida*

### MAWLANA MUHAMMAD KAZI THEORIST AND PROPAGANDIST OF THE IDEAS AND GOALS OF THE SYSTEM KHOJA AKHROR'S "KHIMAYAT" DOCTRINE

Annotation

The article studies the life, activities and creativity of Mawlana Muhammad Kazi, who is one of the closest students and murids of Hazrat Khoja Ubaydullah Ahror, and examines his historical role in preserving and protecting the ideas, goals and principles of the Khojagoniyya-Naqshbandiyya tariqa.

**Key words:** Khimayat, Sufism, Khoja Ahror, Muhammad Qazi, shaykh, piri-murshid, hidayat, shari'at, waz, khojagoniyya-naqshbandiyya, silsila, maqamat, manaqib.

### МАВЛЯНА МУХАММАД КАЗИ ТЕОРЕТИК И ПРОПАГАНДИСТ ИДЕИ, ЦЕЛЕЙ СИСТЕМЫ УЧЕНИЕ «ХИМАЙАТ» ХОДЖА АХРОРА

Аннотация

В данной статье освещена жизнь, деятельность и творчество Мавляна Мухаммада Казии, которого является одним из ближайших учеников и мюридов Хазрата Ходжи Убайдуллы Ахрора, и изучена его исторический роль, в сохранении и защиты идей, целей и принципов тариката ходжагонийя-накшбандийя.

**Ключевые слова:** Химайат, Суфизм, Ходжа Ахрор, Мухаммад Казии, шейх, преемник святого, просветления, шарият, ваз, ходжагония-накшбандия, силсила, макамат, манокиб.

### MAVLONO MUHAMMAD QOZI, XOJA AHROR "HIMOYAT" TA'LIMOTI TIZIMI G'OYA, MAQSADLARI NAZARIYOTCHISI VA TARG'IBOTCHISI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Hazrati Hoja Ubaydulloh Ahrorning eng yaqin shogirdlari, muridlaridan bo'lgan Muhammad Qozi hayoti, faoliyati va asarlari yoritib o'tilishi asnosida ushbu shaxs aynan Xoja Ahror tomonidan so'ngi temuriylar davrida yuritilgan "Himoyat" tizimining g'oya, maqsad, prinsiplarini saqlovchisi va davomchi sifatida, ushbu xojagoniyya-naqshbandiyya tariqati prinsiplarini keng jamoatchilikka targ'ib qiluvchi sodiq tarixiy siymo ekanligi yoritib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Himoyat, tasavvuf, Xoja Ahror, Muhammad Qozi, shayh, piri-murshid, hidoyat, shari'at, va'z, xojagoniyya-naqshbandiyya, silsila, maqamat, manaqib.

**Kirish.** Xoja Ahror Valiying juda shiddatli, insonparvar, millatparvar va diniy-irfoniy ezgu, g'oya, qadriyatlariga asoslangan "Himoyat" itizimi, bu zoti bobarokat vafotidan so'ng boshlanib ketgan Shayboniy O'zbeklari istilomi, yangi sulolaning xokimiyatga kelishi, qaror topishi yillarida bir muncha sustlashgan, zaiflashgan bo'lsada, keyingi Shayboniylar, ayniqsa, Sulton Ubaydulla Xon, Abdulaziz Xon, Abdulla Xonlar davrida yana kuchaya, faollasha boshlaganligini aytib o'tish zarur.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Mavzuga oid adabiyotlarni o'rganishda aynan G'arbiy yevropalik mutaxassislar – F.Meiter, Yurgen P. Devin de Uiz, A.Kyugelgen, M.Kemper, K.Radke, Gabore, Xodkevich, Popovich, Jimarelarning tasavvuf tariqatlari, xojagoniyya-naqshbandiyya "Himoyat" tizimiga oid tadqiqotlari, shuningdek, rus olimlaridan akademik V.V.Bartold, A.Z.V.To'g'on, A.Boldyrev, O.A.Akimushkin, S.Prozorov, S.Abashin, O'zbekiston olimlaridan esa B.Bobojonov, A.K.Mo'minov, Z.Quttiboev, E.E.Karimov kabi olimlar tasavvufshunoslik, islomshunoslik tarixiy tadqiqotlarini olib borib, ularning nashrlarini e'lon qilganlar.

Aynan tasavvuf tariqatlari, ulardagi shaxsiyatlar – Muhammad Qozi hayoti, merosi, tarixiy o'rni masalasida 1993 yilda nashr etilgan Muhammad Xoshim ibn Muhammad Qosimning "Nasoim ul-Quds min haqoyiqi-l-Uns" asari asosida Sh.Z.Boboxon o'g'li Boboxonov va Shayh Abdulaziz

Mansurlar tomonidan tayyorlangan "Naqshbandiya tariqatiga oid qo'lyozmalar Fihristi" kitobida Muhammad Qozining hayoti va uning birinchi asari "Silsilat al-orifiyn va tazkirat as-siddiqiy" haqida ma'lumot berilgan.

Keyingi tadqiqotlarda 1996 yilda taniqli mutaxassis, prof. B.Bobojonov tomonidan himoya qilingan "Политическая деятельность шейхов Накшбандийя в Мавераннахре (первая половина XVI в.)" mavzuidagi nomzodlik dissertatsiyasi matnida Muhammad Qozining tarixiy faoliyati, hayoti va ijodi haqida yaxshigina ma'lumot berilgan bo'lib, shuning ushbu muallif tomonidan Muhammad Qozining "Davlat boshqaruvi qoidalari" (shartli nomlanishi) asarining davlat va jamiyat boshqaruviga oid o'ta muxtasar asar ekanligi haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan edi.

So'nggi yirik tadqiqot sifatida Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asarini nashrga tayyorlovchi manbashunos mutaxassislar N.Mingulov, M.Qutluqov, O.Jalilovlar tomonidan Muhammad Qozining to'liq hayoti, ijodi, faoliyati, Shayboniylar davrida saroydagi faoliyati, doimiy havfsizlik choralari ko'rishga urinishi kabi hayotidagi asosiy holatlarga oid qiziqarli manbaviy tahlil berib o'tilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tarixiy siymoni hayoti va faoliyatini, merosini yoritishda maxsus tarixshunoslik, sharqshunoslik, ijtimoiy falsafa uslub-visitalari yordamida mavzuning asosiy birlamchi manbalari,

ularning asosiy mualliflari asarlarini chuqur o'rganish yordamida; shuningdek zamonaviy ilm-fan, falsafa metodlari: varifikatsiya, falsifikatsiya, umuman tarixiylik, taraqqiyot, ilmiy xolislik prinsiplari, qiyosiy tahlil, analiz, sintez, barcha asosiy konsepsiyalar, yondashishlar, qarashlarni tanqid qilish, umumlashtirish, miqdoriy va tahliliy yondashish, spektral, mantiq, gnoseologik qiyoslash kabi metodlar, uslublardan samarali foydalanildi.

Muhammad Qozining mufassal tarjimai holi quyidagi ikki asarda – 1) Muhammad Xoshim ibn Muhammad Qosimning 103 h.y./1622 yilda yozgan “Nasoim ul-Quds min hadoyiqi-l-Uns” asarida bayon etilgan [1] va 2) Mirzo Haydar Ayoziy “Tarixi Rashidiy” asarida [2] ayrim o'ta muhim ma'lumotlar berilgan, asosiy ma'lum, mashhur ikki asari haqida va unchalik ma'lum bo'lmagan bir asari matni ham keltirilgan.

Mazkur oraliq davrda, ya'ni 1490-1516 yillar oralig'ida Xoja Ahrorning eng zabardast shogirdi – Xalfasi Mavlono Muhammad Qozi [3] nomi bilan mashhur bo'lgan Mavlono Muhammad Burhoniddin (1445-1516) o'zining bosh g'oyasi, shiori “Podshohlarning kekkeyishlari, mag'rurliklari”ni yumshatish, ularni dunyo, davlat, siyosat ishlarida o'zaro “kelishishlari, yarashishlari, Sulhga olib kelish yo'li bilan Muhammad Qozi Mo'g'ullardan Sulton Mahmudni Shayboniylar bilan sulh tuzilishida vositachi bo'lgan bo'lsada, Sulh tuzilmay (Toshkentda – 1502-1503), shayboniylardan yengilgan va Qorateginga qochgan edi.

Bu omadsizlikka qaramay, Muhammad Qozi sultonlar, podshohlar bilan xususan Shayboniy Xonning kichik ukasi Mahmud Sulton bilan yaqinlashish yo'liga o'tib, mazkur Xon taklifi bilan Buxoro xukmdori bo'lib turgan Ubaydulloh Xon (1504-1539)ning xos mulozimi, a'yoniy sifatida faoliyat yuritishga, ular siyosatiga ta'sir o'tkazishga uringan edi.

Ammao, Buxorodagi Ubaydulloh Xon saroyida katta ta'sir kchiga ega bo'lgan yassaviya shayhlari, Buxoro va Samarqand Jo'ybor shayhlari muholifatiga duch keldi. Bundan ancha-muncha cho'chigan Ubaydulloh Xon uning turli davralarda katta ta'sir o'tkazib, g'ulugacha olib borishi mumkinligi uchun umuman tariqat va'zlarini ta'qiqlagan. Oqibatda, Muhammad Qozi hai o'z va'zlarini to'xtatganligi, hatto tariqat mavzusidagi kitoblarni ham o'zida saqlamay, rasmiy ismi, shari'at va'zlari bilan cheklanganligini uning xalfasi Mahdumi A'zam Xojagiy Kosoniy o'zining “Tanbeh us-salotin” risolasida aniq tafsilotlari bilan yozib qoldirgan edi [4].

Mavlono Muhammad Qozi, Xoja Ahrori Valiyning shunday muridi, shogirdi va maslakdoshi bo'lganlarki, buning nisbati kam topiladi, - deb yozgan edi [5] zamondoshlari u bobarokot haqida.

Mavlono Muhammad Qozining ko'nglida Haq Taolo ulug'ligining mushohada, idrok qilishdan solik, murid qalbida paydo bo'ladigan havf shikastalik va ojizlik ekanligini Xoja Ahror bashorat qilib, yana ushbu hidoyat yo'lini chizib bergan, ko'rsatgan ekanlar:

1. Oллоh Taologa muhabbat – Muhammad Rasulilloh – s.o.a.v.lga toe'lik ko'rsatish;

2. Bu maqsadga erishish ulumi diniyni to'liq bilmay, hosil qilmasdan mumkin emasdir; buning uchun esa ulamoyi dinning mulozamati, tobe'ligiga rioya qilish orqali yuzaga chiqadi;

3. Ilmni dunyoda kun ko'rish vositasi qilib oladigan ulamolarning majlislaridan saqlanish vojib;

4. “Va darveshlarki, Raqs va Simo' qiladurlar, ularning suhbatlari barfayz bo'lsa, olg'ay va har taome bo'lsa yegay” – ulardan ham saqlanish zarur, zero, bu gunohi kabiralarga bois bo'lg'ay;

5. “Ahli Sunna va-l-Jama'a mazhabidan boshqa bilimlarni beradigan ma'rifat – balandparvoz mubolag'ali qarashlarni ham Harom bilmoq vojib”; Zero, Hazrat Rasul –

s.o.a.v.! – mutobiatlariga vobasta bo'lganlari nurini hosil qilmoq uchun o'qumoq lozimdur;

“Muddati madiddan keyin (Muhammad Qozi) xos g'idoga (xos dunyoviy ilmlar ozig'i sohibi) mutasaddiy bo'ldilar. Nihoyati ihlosdan, g'idoga lozim narsalarni (ya'ni kitoblarni) rixobdon ot to'rvasiko'targandek, qaerga borsalar, piyoda ko'tarib yurur erdi. Borib-borib (Eshonga) ziyoda yaqinlik hosil qildilar. Shu darajadagi, akobir ulamolalar birla o'lturg'on vaqtda (faqat) Mavlono (qarab) hitob qilib so'zlar erdi. Hazrati Eshonning nazari marhamatlari, bularg'a (ya'ni Mavlono Muhammad Qozig'a) ul miqdor erdiki, as'hoblar va farzandlari hasad qilur erdi(lar)” [6].

Yoshlik yillari o'tib, balog'at hosil qilgan davrlarda, xukmdorlik, rasmiy xokimiyat Chig'atoy temuriylardan shayboniylar qo'liga besaranjomliklari Muhammad Qozi gohi keyingi temuriylar davrida Hazrat Eshon huzurida xalifalik qildi (1485-yildan keyin), gohi Shayboni Xon huzurida nufuzli Piri-Murshid, behad, mislsiz barcha ilmlar bilimdoni, maslahatchisi sifatida Buxoro – Sulton Muhammad (Shayboniy Xonning ukasi, bo'lg'usi Ubaydulloh Xonning otasi) huzurida yuksak mavqe'larda, ammo doimo havf-hatar ostida (Toshkentda, Samarqandda, Farg'ona-Axsi, Andijonda, yana Buxoroda) yashadi.

Garchi mana shu davrga nisbatan, Muhammad Qozi faoliyati, ayniqsa, siyosiy faoliyati bir muncha omadi yurishmay kechgan bo'lsa [7], Muhammad Qozining umuman olganda Xoja Ahror va u shakllantirgan xalq, faol mehnatkash omma vakillarini “Himoyat” tizimini mumkin qadar saqlab qolish, faol davom ettirilgan faoliyatini ijobiy baholash o'rinli bo'ladi.

Chunki, Muhammad Qozi, Xoja Ahrorning ilk Shayboniy xukmdorlarning islom, shari'at qonuni, siyosat andozalarini chuqur bilmasliklari, ijodiy qo'llay olmasliklarini bartaraf etish, buning uchun, qanchalik yoqimsiz va katta behuzurliklar, hatto o'lim havfi real bo'lishiga qaramay, zamona, “Dunyo zo'rlari” – Shayboniy xukmdorlar va ularning mahalliy hokimlari bilan yaqin, tig'iz aloqa o'rnatish, kerak bo'lsa, ularning maslahatchi – “xos a'yonlari” mansablarida o'tirib, mazkur xukmdorlar, xokimiyat egalarining “Ahli muslim” – musulmon Ummasi haq-huquqlari, manfaatlarini himoya qilish, ro'yoga chiqarish, ularning eng Oliy va kundalik siyosatlarida birinchi burch vazifalari ekanligini Piri-Murshidi Xoja Ahror kabi qat'iylik bilan eslatib, ularni amalga oshirishda faollik ko'rsatdi. Xojagoniyya-naqshbandiyya tariqati siyosiy faolligini saqlab qolish uchun ruash olib bordi. Albatta, Muhammad Qozi Xoja Ahror darajasiga, ayniqsa davlatchilik, siyosat bobida, ko'tarila olmadi. Buning quyidagi eng kamida 2 ta psixologik sababi bor edi:

Birinchiidan, Xoja Ahror vafotigacha (1489 yi) keyingi temuriylar davlati oxirgi nisbatan tinch, farovonlik, qonunchilik, tartiblariga rioya qilish davri edi. Muhammad Qozi davrida esa xukmdorlik, hokimiyat bir ikkinchisiga, yangi xo'jayinlarga o'tayotgan, besaranjom davr edi;

Ikkinchiidan, Muhammad Qozida Xoja Ahror g'oya, qadriyatlari, ayniqsa “Himoyat” tizimi yo'lini himoya qilishda sobitlik, izchillik yetarli bo'lsada, biroq, u zotda Xoja Ahror xarizmasi, o'z g'oya, maqsadlariga. Ayniqsa “Himoyat” tizimini, faol, samarali davom ettirishda, deyarli barcha tazkirashunoslar birdek ta'kidlab o'tishgan – shaxsiy jur'at, qat'iylik (ya'ni “Haybat” va “Tag'ayyur”) hych kimdan, hych nimadan qo'rqmaslik – “zo'rlikka zo'rlik” ishlatib bo'lsada “Himoyat” shartlaridan, kafolatlarini amalga oshirishumumdavlat, umumiy ko'lam va daraja yetishmas eli.

**Tahlil va natijalar.** Tasavvuf tariqatlarining davlat va jamiyat hayotidagi o'rni, “Himoyat” tizimining ezgu maqsad va oyalarlari, ularning temuriylar davrida xalq najotkori sifatida davlat boshqaruvida jitmoyi himoya sifatida olib borilganligi va Xoja Ahror Valiy qarashlarini uning shogirdlari, muridlari,

jumldana Muhammad Qozi tomomnidan davom ettirilganligi va keng targ'ib etilganligi manbaviy asosga ega.

Yuqoridagi tarixiy, mafkuraviy-siyosiy shart-sharoitlarga qaramay, Muhammad Qozi ham tasavvuf diniy-irfoniy ilmlari, madaniyati taraqqiyotiga sezilarli xissa bo'lib qo'shiladigan diniy-irfoniy asarlarning muallifidir. Bu jihatdan Mavlono Muhammad Qozining Xoja Ahrorga nisbatan bir qadar ustunlik jihatlari bor bo'lganki, ular haqida bir muncha mufassal so'z yuritilmasa bo'lmaydi. Ushbu o'rinda ham Muhammad Qozi bir muncha ustunlik, afzalliklar davri, shart-sharoitlar taqozosi sifatida mavjud. Agar Xoja Ahrorning qo'limizdagi 5-6 ta aniqlangan risolalari, juda chuqur, yuksak irfoniy muammolar, ibora, istiloh, atamalar, usullar tadqiqi, tahqiqiga bag'ishlangan bo'lib, ular ko'proq tasavvuf, ilmi irfon ekzegetikasi, germevntik jiddiy yondashish, mantiqiy-epistemologik izlanish, tahqiqotlarni taqozo etsa, Muhammad Qozi yozgan va bizga hozircha ma'lum bo'lgan uchta tazkitralar asosan solik, muridlar va ihlosmandlarga muljallangan, bir muncha izchillikda tartibga solingan, oddiy xalq tili, bayon usullariga yaqin yozilgan, jonli qiziqish uyg'ota oladigan, haqiqatdan ham tazkiralardir.

1. Mavlono Muhammad Qozining birinchi va asosiy asari "Silsilat al-orifiyn va tazkirat as-siddiqiyn" [8] (Oriflar silsila – shajarasi va siddiqlar yodnomasi);

2. Davlatni boshqarish qoidalari haqida (shartli nomi) [9];

3. "Maqomoti Xoja Ubaydulloh Ahror" [10] (Xoja Ubaydulloh maqomoti).

Bu tazkiralari va siyosatshunoslik tadqiqotiga oid Muhammad Qozi risolalarining bir muncha to'laroq tavsif, tadqiqotiga to'xtalishdan oldin, biz mazkur risolalar qo'lyozmalari, bosma va litografik nashrlari va h.k. zamonaviy tillarga tarjimalari, rekvizitlarini bayon etishni zarur deb hisoblaymiz.

Mavlono Muhammad Qozining birinchi asari – "Silsilat al-orifiyn" asari eng keng tarqalgan, mashhur tazkiralardan biri bo'lib, unda 12 yil davomida Xoja Ahror mulozamati – xizmatida bo'lib, Eshon hayoti, tavalludi, tahsili, faoliyati, horiq-ul-odatlarini ko'rgan, eshitgan Mavlono tasavvuf, kuzatish, xulosalari, Eshonning eng mashhur "Xojagoniyya-Naqshbandiyya" tariqati, u shakllantira boshlagan mussulmon, faol mehnatkashlarni haqsizlik, zulm, zo'ravonliklardan "Himoya" qilishga oid qikr-qarashlari, "Zikri hafiy" tariqat amaliyotiga oid tasavvuf qarashlari bayon etilgan.

Bu asar mazmuni, undagi qismlar va muammolari haqida Ali Safiy o'zining mashhur, umumlashtiruvchi tazkirasida quyidagicha shohidliklarni yozibqoldirgan: Mavlono Muhammad Qozi "Hazrat Eshonning as-hoblari va maqbullarining ajillaridan turur va ul Hazratning manobqlari, shamoilu hasono va fazoyillarda kitobe tasnif etibdurlar – "Silsilat-ul-orifiy va tazkirat-ul-siddiqiyn" bila musammodur. Ul joyda keltiribdurkim sanai tarixi sakkiz yuz saxon beshda (1480) erdikim, Hazrati Eshonning mulozamatlariga yetushuldi. Va o'n ikki yilga qariyb ul Hazratning mulozamatlarida bo'ldi" [11].

Ikkinchi asar prof. B.M. Bobojonov shartli nom bergan – "Davlatni boshqarish qoidalari haqida" asari qo'lyozmasi alohida saqlanmagan, bizgacha yetib kelmagan bo'lsada, baxtimizga Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asarida, deyarli ayni kelitirilgan mavjudligi, uni demk, nafaqat tarixchi, tazkirachilar, balki bevosita "Davlat huquqi va nazariyasi tarixi" ixtisosligi, siyosatshunoslik, falsafa sohalari mutaxassislari maxsus ilmiy-manbaviy va nazariy-metodologik tadqiq etish imkoniyatiga egalar.

Bu asarni yozilishida "Tarixi Rashidiy" muallifi Mirzo Muhammad Haydar bevosita sababchi bo'lganligini quyidagicha yozgan edi: "Bulardan bo'lak rasoyillari ham bordur. Ba'zi masalarki, men banda ulardan so'rab erdim, ularni ham qaydi kitobatga kelturub erdilar ... Eshon ... a.r.! – vafot bo'lg'onian kevin, o'g'illari ... Mahdumzoda Qutbiddin Ahmad ul risolani manga yiborib ekanlar ..., men bandai beisteto'at ... musavvada ... da bitildi [12].

Mavlono Muhammad Qozining katta ilmiy-nazariy diqqat e'tiborga sazovor bu asarini zamonaviy tadqiq etish zarurligi munosabati bilan mazkur manba bilan bog'liq quyidagi mutaxassislar fikr-mulohazalariniga diqqat etish jiddiy e'tibor talab etadi.

Bu manba haqida, uni bizgacha saqlanib, yetib kelgan mantni haqida prof. B.M. Bobojonov quyidagi o'z fikr-mulohazalarini bildirgan edi: "Bu risola shu mavzudagi risolalar muallifligi nisbat beriladigan Shayh Abdulloh Ansoriy (1088 yillar) "Nasihat-name" ta'sirida yozilgan. Shunga qaramay, Muhammad Qozi risolasida siyosatchilarga taalluqli juda qimmatli, dono xikmatlari-nasihat, tavsiyalari mavjud" [13].

Uchinchi asar "Maqomoti Xoja Ubaydulloh Ahror" asari bo'lib, yuqorida keltirilgan naqshbandiya tariqati qo'lyozmalar "Fehristi"da ilk bora ko'rsatilgan edi [14]. Bu asarning 2 ta qo'lyozmasi bizgacha saqlanib, yetib kelgan bo'lsada (200 betdan ortiqroq ma'lumot) na ilmiy iste'molga kiritilgan, na nashr etilgan. Bizningcha bu asar XV asr boshlarida yozilgan, qo'lyozmalari uncha ko'p emas, hatto toshbosma, litografiya nashrlari yo'q, ma'lum emas. Holbuki bu "Maqomoti Xoja Ubaydulloh Ahror" asari, uning eng yaqin, sabit shogirdi, muridi Muhammad Qozi bilan 12 yil birga bo'lish, uning ko'pgina so'zlari, xatti-harakatlarining jonli guvohi bo'lgan sodiq shogirdi, shu darajadagi Hazrati Eshon farzandlari, uning o'z shogirdiga alohida mehru-muhabbatga to'liq, yaqin munosabati nufuziga hasad qilishgan inson tomonidan yozilgan asardir.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Mavlono Muhammad Qozi hayoti va ijodi, uning XV asr oxiri - XVI asr boshlaridagi faoliyati, uning asarlari orqali hozirgi kunda davlat boshqaruvi masalalarida xukmdorlar, mansab egalari, lavozimda o'tirgan shaxslarning to'g'ri va halol ishlashlari, o'z mansablarini su'istemol qilmasliklari, malakat barqarorligi uchun nimalar talab qilinishi, xukmdor va fuqarolarning munosabatlari qay tartibda bo'lishi kerakligi, siyosatning nozik va murakkab tomonlari haqidagi uning o'gitlari, yo'l-yo'riqlari, ko'rsatma va nasihatlariga amal qilish bilan ta'sir etish mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Sh.Z. Boboxon o'g'li Boboxonov va Shayh Abdulaziz Mansur. Naqshbandiya tariqatiga oid qo'lyozmalar Fehristi. –T.: Movarounnahr, 1993. 65, 66-betlar.
2. Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. Tarixi Rashidiy. –T.: O'zbekiston, 2011.
3. Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. Tarixi Rashidiy. –T.: O'zbekiston, 2011, 704 bet, 308-312; 365-366; 427-431 bb.
4. Xojagi Kosoniy. Tanbeh as-salotin/O'zFA A.R. Beruniy nomidashi ShI qo'lyozmasi. Ash'yo № 501/X – 135v -146a sahifalar.
5. Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy. –T.: O'zbekiston, 2011. 308-312-bb.
6. Yuqoridagi manba ... 308-309; 365-366-bb.
7. Б.М.Бобононов. Политическая деятельность шейхов Накшбандий в Мавераннахре (первая половина XVI в.). Автореферат кандидатской диссертации. –T.: ФБ АН, 1996. Сс. 8-9 и далее.

8. Mavlono Muhammad Qozi. Silsilat-ul-orifiyn va tazkirat us-sidiqiyn. O'zFA A.R.Beruniy nomidagi ShI qo'lyozmasi. Ash'yo № 11413//SVR.X. 225-bet. Yana boshqa qo'lyozmalari: 10603; 6314; 4452; 5414. Shuningdek: Sh.Z.Boboxon o'g'li Boboxonov va Shayh Abdulaziz Mansur. Naqshbandiya tariqatiga oid qo'lyozmalar Fehristi. –T.: Movarounnahr, 1993. 42-bet.
9. Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy. –T.: O'zbekiston, 2011. 308-309; 427-431-bb. Shuningdek qarang: Б.М.Бобожонов. Политическая деятельность шейхов Накшбандийя в Мавераннахре (первая половина XVIв.). Автореферат кандидатской диссертации. –Т.: ФБ АН, 1996. С. 7.
10. Mavlono Muhammad Qozi. Maqomoti Xoja Ubaydulloh Ahror. O'zFA ShI qo'lyozmasi. Ash'yo № 8237/1. Sh.Z. Boboxon o'g'li Boboxonov va Shayh Abdulaziz Mansur. Naqshbandiya tariqatiga oid qo'lyozmalar Fehristi. –T.: Movarounnahr, 1993. 41-42-bb.
11. Ali Safiy. Rashaxotu aynil hayot. –T.: Abu Ali ibn Sino, 2004. 447 bet.
12. Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy. –T.: O'zbekiston, 2011. 424-b.
13. Б.М.Бобожонов. Политическая деятельность шейхов Накшбандийя в Мавераннахре (первая половина XVI в.). Автореферат кандидатской диссертации. –Т.: ФБ АН, 1996. С. 7.
14. Sh.Z.Boboxon o'g'li Boboxonov va Shayh Abdulaziz Mansur. Naqshbandiya tariqatiga oid qo'lyozmalar Fehristi. –T.: Movarounnahr, 1993. 41-42-b,



UDK:93/94

*Umida TESHABAYEVA,*  
*O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti mustaqil tadqiqotchisi*  
*O‘zMU professori A.Yermetov taqrizi asosida*

### O‘ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA (1941-1945)

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston Milliy kutubxonasining Ikkinchi jahon urushi yillaridagi faoliyati xususida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, kutubxona, davlat kutubxonasi, fondlar, mahalliy nashrlar, kitob do‘konlari, manbalar.

### НАЦИОНАЛЬНАЯ БИБЛИОТЕКА УЗБЕКИСТАНА В ВРЕМЯ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ (1941-1945)

Аннотация

В статье рассказывается о деятельности Национальной библиотеки Узбекистана в годы Второй мировой войны.

**Ключевые слова:** Национальная библиотека Узбекистана, библиотека, государственная библиотека, фонды, местные издания, книжные магазины, источники.

### NATIONAL LIBRARY OF UZBEKISTAN DURING WORLD WAR II (1941-1945)

Annotation

The article talks about the activities of the National Library of Uzbekistan during the Second World War.

**Keywords:** National Library of Uzbekistan, library, state library, funds, local publications, bookstores, sources.

**Kirish.** Urush yillarida O‘zbekiston sobiq Ittifoqning muhim harbiy-sanoat bazasiga aylandi, frontga inson resurslari, texnika, o‘q-dori, kiyim-kechak, anjomlar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib berdi. Respublika evakuatsiya qilingan 90 dan ortiq zavod va fabrikalarni qabul qildi, joylashtirdi va jadal sur‘atlarda ishga tushirilishini ta‘minladi.

Ayni vaqtda u o‘z hududida mahsulotlari mamlakatga o‘ta zarur bo‘lgan korxonalar barpo etdi. 1941-1945 yillar ichida respublikada jami 280 ta sanoat korxonasi ishga tushirildi[1].

“Hamma narsa front uchun, hamma narsa g‘alaba uchun” shiori mamlakat hayotini front ehtiyojlariga bo‘ysundirish, butun faoliyatni urush tarziga muvofiq tashkil etishga qaratilgan chaqiriq, O‘zbekiston kutubxonalari faoliyat yo‘nalishini ham belgilab berdi.

Urush davri shart-sharoitlari birinchi yildayoq kutubxonalar tarmog‘i ommaviy tarzda qisqarishiga olib keldi. Qishloqlardagi kichik shaharlardagi va hatto viloyat markazlaridagi aksariyat kutubxonalar yopildi. Mablaga bilan ta‘minlashning kamayishi natijasida, ishlab turgan kutubxonalarning shtatlari ham qisqartirildi.

Respublika kutubxonalariga kitoblarning kelib turishi Ikkinchi jahon urushi davrida keskin qisqardi. Bu yillarda chop etilayotgan kitoblarning umumiy nusxasi 1940 yilga nisbatan 2 barobardan ko‘proq, ro‘znomalarning yillik nusxasi 2,5 barobar, ilmiy jurnallar, ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan tayyorlanadigan asarlar va ilmiy axborotlar 8 barobar qisqardi. Bu hol kutubxonachilarni majburiy nusxalar bo‘yicha 94 646 jild kitob olingan bo‘lsa, shu yilning ikkinchi yarmida bu raqam 2,2 barobar kamaydi[2].

Urushning dastlabki yillaridayoq O‘zSSR Davlat kutubxona shtati qisqarib ketdi. 1941 yilning boshlarida 145 xodim o‘rniga, yil oxiriga borib 91 xodim ishlay boshladi. 1941 yilda budget 823 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 1942 yilga kelib deyarli 2 barobar qisqardi. 1942 yilning yanvariga kelib kutubxonaning fondiga kelib tushadigan adabiyotlar hamda shtatning qisqarishi sababli, komplektlash va qayta

ishlov berish bo‘limlari birlashtirildi. Majburiy nusxalarning olinishi ham 1941 yilga nisbatan 2 barobar qisqardi[3].

Shuningdek, fondlar aholidan sotib olingan kitoblarni hisobiga ham to‘ldirilib borildi. Urush davrida bosmaxonalardan majburiy nusxalar, O‘zbekiston SSR Kitob palatasidan olinadigan mahalliy nashrlar nusxalari, davriy nashrlarga obuna bo‘lish, kitob do‘konlaridan, xususiy shaxslardan sotib olish hisobiga fondning to‘ldirilishidagi asosiy manbalar edi. Butun ittifoq kitob palatasidan katalog kartochkalari tayyorlanishi to‘xtab qolishi natijasida 1941 yilning iyulidan yil oxirigacha kitoblarga ishlov berish kartochkasiz amalga oshirildi.

Urush davrida respublika kutubxonalarida o‘quvchilarning turli guruhlari nisbati ham ancha o‘zgardi. Ularning tarkibida ilmiy va muhandis-texnik xodimlar soni ko‘paydi. Masalan, 1940 yili O‘zSSR Davlat kutubxonasida ular barcha o‘quvchilarning 17,3 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 1945 yili bu ko‘rsatkich 47 foizga yetdi[4].

Toshkent shahridagi kutubxonalar xizmatidan foydalanuvchi harbiy xizmatchilar soni ancha ko‘paydi. Agar 1940 yili mazkur kitobxonlar guruhi jami kitobxonlarning atigi 2,4 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 1944 yili bu ko‘rsatkich 17,6 foizga yetdi. Kitobxonlar tarkibining bunday o‘zgarishi eng o‘qishli kitoblarning mavzusiga ham ta‘sir ko‘rsatdi[5].

Urush davrida harbiy, texnik va tibbiy adabiyotlarga bo‘lgan talab sezilarli darajada oshdi. Ayni vaqtda, kutubxonalarning kitobxonlar bilan ommaviy va individual ishlash jarayonida ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarni targ‘ib qilish yetakchi o‘rinlardan birini egalladi. Agar 1941 yili O‘zbekiston kutubxonalarida kitobxonlarga 89,5 ming nusxa ommaviy-siyosiy adabiyotlarni o‘qishga bergan bo‘lsa, 1942 yili bu ko‘rsatkich 105,5 ming nusxani tashkil qildi[6].

Respublika Maorif xalq komissarligi kutubxonalariga adabiyotlarni targ‘ib qilishning kitob va gazetalarni surunkali o‘qib eshittirish, suhbatlar, savol-javob kechalari o‘tkazish kabi shakllarini qo‘llash majburiyatini yukladi. Kutubxonalarida korxonalarda, ilmiy muassasalarda, oliy

o'quv yurtlarida, gospitallarda ish olib borish, kitobni kitobxonlarga har tomonlama yaqinlashtirishni taklif qildi.

Respublika kutubxonalarining xodimlari o'zlari otaliqqa olgan gospitallar va harbiy qismlarga xizmat ko'rsatish uchun maxsus ko'chma fondlar tashkil qildilar. Mazkur fondlar kitobni ommaviy va individual tarzda targ'ib qilishga mo'ljallangan edi. Ushbu fondlardan Chirchiq va Yangiyo'ldagi evakogospitallarga, Motorlashtirish va mexanizatsiyalashtirish akademiyasiga, harbiy-tibbiy akademiya va boshqa muassasalarga xizmat ko'rsatish uchun ko'chma kutubxonalar ajratilardi. Urush yillarida respublikada harbiy qismlar, gospitallar qoshida yangi kutubxonalar tashkil etildi. Ularning ishida viloyat, shahar va tuman kutubxonalari ham faol ishtirok etdi. Aksariyat kutubxonalar asosan o'quvchilar sirasidan o'z faollar kengashiga ega bo'lib, ularning yordamida Qizil Armiya jangchilari hamda fashist bosqinchilaridan ozod qilingan hududlarning aholisi uchun mahalliy aholidan kitoblar, musiqa asboblari, patefonlar, plastinkalar va boshqa madaniy jihozlar yig'ilar edi.

Respublikada kutubxonachilik ishining rivojlanishiga O'zbekistonga SSSR Fanlar akademiyasi Prezidiumi va bir nechta yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalarining evakuatsiya qilinganligi sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Urush yillarida Toshkentda akademiklar va muxbir a'zolar, fan doktorlari va taniqli fan arboblari mehnat qildilar.

Shu yillari kutubxonada o'quv zallarida akademiklar V.V. Struve, V.P. Filatov, muxbir a'zolar V.M. Jirmunskiy, A. Yakubovskiy, N. K. Pikanov, yozuvchilar A.L. Tolstoy, N.YE. Virta, V.V. Ivanov, M.A. Syalovskiy, V.G. Yan, K.I. Chukovskiy, xizmat ko'rsatgan san'at arboblari M.F. Gnesin, professor V. M. Belyayev, kompozitor N.V. Bogoslovskiy kabi ko'plab shaxslar ilm bilan shug'ullangan[7].

Shu davrda ham qo'lyozmalarni o'rganish to'xtab qolmadi, aksincha keng ko'lamda davom etdi. Ayniqsa, 1942 yilda sharh muallimlarining rus va o'zbek tillariga o'girilgan asarlari katta ahamiyatga ega bo'ldi.

1942 yil boshlarida Toshkent, Moskva, Leningraddan hamda O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasining ko'pgina atoqli olimlari qatnashgan kengashning kutubxonada o'tkazilishi ham tarjimachilik ishlariga ijobiy ta'sir ko'ratdi. Kutubxona qoshida 1942 yilning yozida atoqli sharhshunoslardan tashkil topgan ilmiy komissiya 1943 yilgacha faoliyat ko'rsatdi. Natijada, kutubxona fondi O'rta Osiyo va uning atrofidagi mamlakatlar tarixi bo'yicha o'rta asrlar mualliflari asarlarining o'zbek va rus tillariga o'girilgan tarjimalari bilan yanada boyitildi.

Toshkentda, Samarqandda, Farg'onada va respublikaning boshqa shaharlarida mamlakatning 35 yirik oliy o'quv yurti, shu jumladan, Moskva Kimyo-texnologiya instituti, Kiyev industriya instituti, Xarkov politexnika va qishloq xo'jalik institutlari, Odessa, Saratov va Shimoliy Kavkaz universitetlari joylashtirildi. Itgifoq hududidagi ko'pgina sanoat korxonalar ham shu yerga ko'chirildi[8].

Mazkur jamoalarnipg O'zbekiston olimlari bilan hamkorlikda ishlashi, fan taraqqiyoti sur'ati va darajasiga, respublika olimlari ilmiy mahoratining oshishiga juda ijobiy ta'sir kursatdi.

Zavod va fabrikalarda ish tartibining o'zgarishi kutubxonalarda foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish soatlarini uzaytirishni talab qilardi. O'zbekiston SSR Davlat kutubxonasi Toshkent shahridagi elektr energiyasi bilan ta'minlashdagi qiyinchiliklarga qaramasdan, doimiy ravishda yoritib turildi va eng muhim obyektlar qatoridan joy oldi. Urushning 4 yil mobaynida faqat davlat kutubxonasining o'zi 47 ming foydalanuvchiga xizmat ko'rsatdi, bu urushdan oldingi davrga nisbatan 6 ming kishiga ko'proqdir[9].

Ko'p sonli ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlari, sanoat korxonalarining O'zbekistonga evakuatsiya

qilinishi, mudofaa ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish ishlarining yo'lga qo'yilishi respublika kutubxonalarining oldiga juda mas'uliyatli vazifalarni qo'ydi. Ilmiy xodimlar, respublika xalq xo'jaligi xodimlari, evakuatsiya qilingan ilmiy muassasalar va sanoat korxonalarining xodimlariga yuqori darajada xizmat ko'rsatish, shuningdek, vaziyat talablariga javob beradigan hajmda ma'lumot-bibliografiya ishlarini olib borish uchun kitob fondlarini izchil shakllantirish zarur edi.

1943 yilning yozida YE.K. Betger O'rta Osiyo Davlat universitetining tarix fakultetida "A. I. Butakov xotira daftari uning biografiyasi uchun material sifatida" mavzusida dissertatsiya yoqladi. Shuningdek, u N.N. Benediktova bilan birgalikda 1946 yili "Turkiston to'plami" dan Qirg'izistonga oid ma'lumotlarni to'plab, "Turkiston to'plami" sahifalarida Qirg'iziston" [10] nomi bilan alohida ko'rsatkich tuzdi.

1945 yilning boshida O'zbekiston SSR Davlat kutubxonasining 75 yillik yubileyiga bag'ishlangan "Madaniy ishlarining chorakam bir asri" [11] nomli qo'lyozma tayyorlandi.

Urush yillarida kitob mahsuloti ishlab chiqarish hajmlari, gazetalar, ilmiy jurnallar, olimlar asarlari to'plamlari yillik tirajlarining kamayishi, kutubxonalarining adabiyotlar bilan ta'minlanishiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1944 yilning oxirida «Soyuzpechat» tashkilotiga har bir madaniy-oqartuv muassasasini markaziy va mahalliy gazetalar bilan ta'minlash majburiyati yuklanganidan keyingina, vaziyat birmuncha yaxshilandi. Urush yillarida tashkil qilingan O'zSSR Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasiga Itgifoqda chop etilgan barcha bosma mahsulotlarning majburiy nusxasi ajratildi. Mazkur kutubxonaga ham, O'zSSR Davlat Ommaviy kutubxonasiga hamda O'rta Osiyo davlat universiteti va O'zbekiston Davlat universitetining fundamental kutubxonalariga bo'lganidek, fan va texnikaning barcha tarmoqlariga oid yangi adabiyotlar muntazam yuborilishi ta'minlandi. 1944 yilda kutubxona chet el adabiyotlarini ham xarid qila boshladi.

Respublika Maorif xalq komissarligi, O'rta Osiyo davlat universiteti rektorati, ko'pgina muassasa va idoralar maxsus kutubxonalar faoliyatining yaxshilanishiga imkoniyat yaratdi. Maorif xalq komissarligining 1941 yil 16 noyabrda "Davlat Ommaviy kutubxonasining holati va uning ishini qayta qurish to'g'risida" gi buyrug'iga binoan, yangi ilmiy va ishlab chiqarish vazifalarini yanada tezkorlik bilan hal qilish uchun kitob fondlarini ish joylariga yaqinlashtirish tavsiya etildi. Maxsus kutubxonalar mudofaa korxonalarini hamda harbiy fan va sanoat masalalari bilan shug'ullanayotgan mutaxassislarining ehtiyojlarini mumkin qadar to'liq qondirish uchun o'z ishini qayta qurdilar. Zavod va fabrikalarda ish rejimining o'zgariganligi munosabati bilan kutubxonalarda o'quvchilarga xizmat ko'rsatish soatlari uzaytirildi[12].

O'zSSR Davlat Ommaviy kutubxonasi, O'rta Osiyo davlat universiteti va O'zSSR Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonalar muhim obyektlarga tenglashtirildi va Toshkent shahrini elektr energiyasi bilan ta'minlashda mavjud qiyinchiliklarga qaramay, muttasil ravishda yoritilib turildi. Urushning to'rt yili davomida O'zSSR Davlat Ommaviy kutubxonasining o'zi 45 mingdan ko'proq kitobxonga xizmat ko'rsatdi. Shu davrda o'qishga berilgan kitoblar soni urushdan oldingi yillarga qaraganda 500 ming kitobga ko'paydi[13].

Urush davri talablariga muvofiq tarzda o'z faoliyatini qayta qurgan O'zbekiston kutubxonalar RSFSRning fashist bosqinchilaridan ozod qilingan hududlaridagi madaniy oqartuv tashkilotlariga yaqindan yordam bera boshladi. Fashistlar tomonidan vaqtinchalik ishg'ol qilingan hududlarda 43 mingga ommaviy, 82 mingta maktab, 334 ta oliy o'quv yurtlari kutubxonalari to'liq yoki qisman vayron qilingan edi. Ko'rilgan favqulodda choralar yordamida kutubxonalar tarmog'i tez tiklandi. Ishg'ol qilinmagan hududlarda Davlat

fondining 36 filiali tashkil qilindi. Ulardan biri Toshkentda joylashgan edi. 1943 yilning oktabrida unga 81 mingta kitob kelib tushdi. Institutlar, kutubxonalar va muassasalar o'z zaxiralardan ko'plab adabiyotlarni ajratdilar. Bundan tashqari, aholidan 17 mingtdan ko'proq kitob yig'ildi. Toshkent filiali Qabardin-Balqar, Xarkov viloyati va Stavropol o'lkasiga 40 mingdan ortiq kitob yubordi. Mazkur adabiyotlar bilan 21 tuman va bir viloyat kutubxonasining fondlari jamlandi. 1944 yilning boshida Davlat fondining Toshkent filiali Poltava viloyatiga 4 jamlangan tuman va bir viloyat kutubxonasini yubordi. Mazkur kutubxonalarning fondlariga bilimning turli sohalariga oid bir necha ming kitob, badiiy adabiyotlar, san'atga oid nashrlar jamlangan edi. Xarkov va Poltava viloyatlari, Stavropol o'lkasi, Qabardin-Balqar, Dnepropetrovsk va Rostovga jami rus, ukrain, belorus tillarida va boshqa tillardagi 107 mingdan ortiq kitob yuborildi[14].

Ikkinchi jahon urushi yillarida ushbu urushning xususiyati, maqsadlarini tushuntirish, mamlakatning barcha aholisini front ehtiyojlarini ta'minlashga safarbar qilish, ular o'rtasida harbiy bilimlarni targ'ib etish, xalq xo'jaligini harbiy ishga muvofiq ravishda qayta qurishda butun kuchlarini sarflagan holda ishtirok etishlarida O'zbekiston Davlat ommaviy kutubxonasi barcha resurslarni safarbar qilibgina qolmasdan, barcha kutubxonalar faoliyatini ushbu maqsadlarni amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirdi. Vaziyatdan kelib chiqqan holda ommaviy ish shakillari: ma'ruzalar, suhbatlar,

kitob ko'rgazmalari, ovoz chiqarib o'qishlar, kitobxonlar konfrensiyalari tashkillashtirdi.

Shuningdek, kutubxona faoliyati haqida gazeta sahifalarida maqolalar chop etilib borilgan. Jumladan, "Turkiston albomi"[15] O'zbekiston Davlat xalq kutubxonasida saqlangan, 4 qismdan iborat bo'lgan "Turkiston albomi" haqida, "Turkiston haqida to'plam"[16] O'zbekiston Davlat kutubxonasida saqlangan "Turkestanskiy sbornik" ("Turkiston to'plami") degan to'plam haqida, "Navoiy "Xamsa"sining nodir nusxasi"[17] O'zbekiston Davlat kutubxonasida Alisher Navoiy "Xamsa"sining eng eski va nodir nusxasi saqlanishi haqida, "Navoiyning yangi asari"[18] nomli maqolada yozilishicha, O'zbekiston Davlat kutubxonasining Sharq qo'lyozmalari bo'limida Alisher Navoiyning fors tilidagi "Mufradot" asarining 2 nusxasi topilganligi, "Ommaviy kutubxonaning spravka-bibliografik ishi"[19] kabi maqolalar tayyorlagan.

Kutubxonalar o'z fondlarini hospitallar, harbiy qismlar ixtiyoriga berib qo'ydilar, ilmiy jamoalar ko'chirib keltirilgan ishlab chiqarish korxonalariga kutubxona-bibliografik xizmati ko'rsatishni yo'lga qo'ydilar. Mamlakatimizda yashayotgan ko'pgina millat vakillari va mutaxassislari zarur kitoblar hamda axborotlar bilan ta'minlandi. Ishlab chiqarish jamoalarini va ilmiy muassasalarni kitob bilan ta'minlashga qaratilgan ish shakillari rivojlantirildi.

#### ADABIYOTLAR

1. Народное хозяйство Узбекской ССР за пятьдесят лет. Юбилейный статистический ежегодник. - Ташкент: Узбекистан, 1974. - С.10.
2. Қосимова О. Ўзбекистонда кутубхоначилиги тарихи: маданият олийгоҳлари учун ўқув дарслик. - 2- қайта нашр. ва тўлд. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - Б. 83
3. Государственная библиотека Узбекской ССР имени Алишера Навои. 1870-1970. - Ташкент: Изд-во литературы и искусство им. Г. Гуляма, 1977. - С. 91.
4. Қосимова О. Ўзбекистонда кутубхоначилик тарихи: маданият олий билимгоҳи ва маданият - маърифий техникумлар талабалари учун ўқув кўлл. - 2- қайта нашр. ва тўлд. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - Б.76.
5. Ўша жойда-ўша бет
6. Қосимова О. Ўзбекистонда кутубхоначилик тарихи: маданият олий билимгоҳи ва маданият - маърифий техникумлар талабалари учун ўқув кўлл. - 2- қайта нашр. ва тўлд. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - Б.77
7. Государственная библиотека Узбекской ССР имени Алишера Навои. 1870-1970. - Ташкент: Изд-во литературы и искусство им. Г. Гуляма, 1977. - С.94.
8. Қосимова О. Ўзбекистонда кутубхоначилик тарихи: маданият олий билимгоҳи ва маданият - маърифий техникумлар талабалари учун ўқув кўлл. - 2- қайта нашр. ва тўлд. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - Б. 85
9. Қосимова О. Ўзбекистонда кутубхоначилиги тарихи: маданият олийгоҳлари учун ўқув дарслик. - 2- қайта нашр. ва тўлд. - Тошкент: Ўқитувчи, 1992. - Б.85.
10. Бетгер Е.К. Киргизия на страницах "Туркестанского сборника" библиографический указатель. - Ташкент: Государственная Публичная библиотека УзССР им. Алишера Навои, 1946. - 95 с.
11. Бетгер Е.К. Три четверти века культурной работы: К 75-летию юбилею Государственной Публичной Библиотеки УзССР. - Ташкент, 1945. - 154 с.
12. Охунжонов Э. Ватан кутубхоначилиги тарихи: Дарслик. - Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистан Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. - Б.129
13. Ўша асар. - Б.130
14. Охунжонов Э. Ватан кутубхоначилиги тарихи: Дарслик. - Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистан Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. - Б.131.
15. Бетгер Е.К. Туркестон альбомы: // Қизил Ўзбекистон. - 1941. - 10 апр.
16. Бетгер Е. Туркестон хақида тўплам // Қизил Ўзбекистон. - 1941. - 28 янв.
17. Навоий "Хамса"сининг нодир нусхаси // Қизил Ўзбекистон. - 1941. - 13 янв.
18. Одилов Ибод. Навоийнинг янги асари // Қизил Ўзбекистон. - 1941. - 20 янв.
19. Султонов М. Оммaviy кутубхонанинг справка-библиографик иши // Қизил Ўзбекистон. - 1941. - 22 янв.



*Firuzbek TOJIBOYEV,*  
*Andijon davlat universiteti o'qituvchisi*  
*E-mail: firuzbektojiboyev1988@gmail.com*

*ADChTI dotsenti, t.f.n Q.Nasriddinov taqrizi asosida*

### ESTABLISHMENT AND OPERATION OF JOINT VENTURES (IN THE EXAMPLE OF FERGANA REGION 1991-2000 Y.Y.)

Annotation

In this study, the analysis of the initial reforms of the government of Uzbekistan in the first years of independence to establish cooperative relations with foreign countries and increase the economic potential of the country is covered. Activities of joint ventures established in the republic, including Fergana region, and their cooperation relations are revealed.

**Key words:** joint venture, investment, enterprise, memorandum, industry, scope of work, production.

### СОЗДАНИЕ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ СОВМЕСТНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ (В ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ 1991-2000 Г.Г.)

Аннотация

В данном исследовании освещается анализ первоначальных реформ правительства Узбекистана в первые годы независимости по установлению связей сотрудничества с зарубежными странами и повышению экономического потенциала страны. Раскрыта деятельность совместных предприятий, созданных в республике, в том числе в Ферганской области, и отношения их сотрудничества.

**Ключевые слова:** совместное предприятие, инвестиции, предприятие, меморандум, отрасль, объем работ, производство.

### QO'SHMA KORXONALARNING TASHKIL TOPISHI VA FAOLIYATI (FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA 1991-2000 Y.Y.)

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston hukumatining horijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatilishi, mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlarini yuksaltirish yo'lidagi dastlabki islohotlarini tahlili yoritilgan. Respublikada, jumladan Farg'ona viloyatida tashkil etilgan qo'shma korxonalar faoliyati va ularning hamkorlik aloqalari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** qo'shma korxonalar, investitsiya, korxonalar, memorandum, sanoat, ish hajmi, ishlab chiqarish.

**Kirish.** Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston hukumati horijiy davlatlar bilan o'zaro hamkorlik aloqalar o'rnatilib, rivojlangan davlatlar qatorida jahon bozorlariga sifatli va raqobatga bardoshli bo'lgan tovar mahsulotlarini yetkazib berish sohadagi dolzarb masalaga aylandi. Jarayonlarni tezlashtirish, ishlab chiqarish quvvatini oshirish, korxonalarini zamonaviy modernizatsiya qilish va raqobatga bardoshli tovarlar ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish va bu borada xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish zamon talabiga aylandi. Respublikamizning birinchi prezidenti I.A.Karimov aytganidek, "Bugungi kunda ko'plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o'rinlarda turadigan mamlakatlar tajribasi shuni so'zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta'minlash, faoliyat ko'rsatayotgan ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish xisobidan amalga oshirilishi mumkin".

Har bir mamlakatga xorijiy davlatlardan kirib keladigan investitsiya va kapitallar avvalo anashu mamlakatning qulay geografik joylashuvi, siyosiy barqarorligi, qonunlar ustuvorligining ta'minlanganlik darajasi bilan bog'liq xisoblanadi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston respublikasida siyosiy barqarorlik, boy homashyo resurslar mavjudligi, qo'shma korxonalar faoliyatining xuquqiy asosi yaratilganligini horijiy investorlar va yirik iqtisodiy quvvatga ega bo'lgan kompaniyalar uchun o'ziga jalb qiluvchi jozibadorligini yanada oshirib borgan.

Hamkorlik aloqalarini amalga oshirishda avvalo mamlakatimizga horijiy investitsiya olib kirishning huquqiy asoslari yaratilib, 1991 yil 12 noyabrda Vazirlar Maxkamasining 290-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida xorijiy sarmoyalar bilan korxonalar, shu jumladan qo'shma korxonalar, xalqaro birlashmalarni tashkil etish, ularning faoliyat ko'rsatish va davlat ro'yxatiga olish tartibi to'g'risida" gi maxsus qarorni qabul qilinishi muhim qadamlardan biri bo'ldi [1].

Qo'shma korxonalarini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri, milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda mahalliy mehnat resurslardan oqilona foydalanishni rivojlantirish jahon bozoriga kirib borishni tezlashtirish va hodimlar salohiyatini rivojlantirish bo'lib, jahon bozorida munosib o'rin egallash hamda, uni yildan-yilga yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish, jahon bozoriga kirib borish, aholi ijtimoiy-iqtisodiy hayotini sezilarli darajada ijobiy tomonga o'zgartirish pirovard maqsad qilib olingan.

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalari asta sekin rivojlanib borgan. Mamlakat iqtisodiyotiga olib kirilayotgan investitsiya va kapitallar hajmi oshib borib xorijiy mamlakatlar bilan birgalikda tashkil etiladigan qo'shma korxonalar soni ortib borgan.

Horijiy investitsiyani O'zbekiston iqtisodiyotiga olib kirishning eng maqbul yo'llaridan biri bu-qo'shma korxonalar tashkil etishdir [2]. 1991 yil horijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni 191 tani tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 1993 yil 237 tani yillik o'sish surati 1.3 % ni

tashkil etdi. 1994 yilga kelib, 380 tani tashkil etib umumiy xisobda 1.6 % ga o'sishni kuzatish mumkin. 1995 yilda 1.4 % ga o'sib umumiy xisobda 537 ta qo'shma korxonalar tashkil etildi. Mos ravishda 1993 yil birgina Farg'ona viloyatida 19 ta, 1994 yilda 14 ta qo'shma korxonalar tashkil etilib, Moliya vazirligi ro'yxatidan o'tganini ko'rishimiz mumkin [3].

O'z navbatida ushbu yillarda tashkil etilgan 33 ta korxonalarda viloyatning 340 nafar kishisi uchun yangi ish o'rinlari yaratilib, 1993 yilda korxonalar tomonidan umumiy qiymati 800 mln so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan [4]. 1991-1994 yillar oralig'ida Farg'ona viloyatida qo'shma korxonalar tashkil etish viloyatning tuman va shaharlari kesimida Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon shaharlari, Quva, Beshariq, O'zbekiston tumanlarida dunyoning bir qator davlatlari bilan xususan Italiya, Germaniya, Janubiy Koreya, Avstriya, Turkiya, Xitoy, Afg'oniston hamda, Pokiston singari davlatlari bilan iqtisodiyotning turli sohalarida sanoat, savdo, energetika yo'nalishlarida qo'shma korxonalar tashkil etish yuzasidan xalqaro shartnomalar imzolandi.

Farg'ona viloyatida 1992 yilda non va don mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi Quva don mahsulotlari korxonasiga Italiya bilan hamkorlikda bir sutkada 40 tonna makaron va makaron mahsulotlarini ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan zamonaviy sex to'laqonli ishlab turuvchi yangi asbob-uskunalarining o'rnatilishi va Shveysariya davlatidan olib kelingan zamonaviy texnik jihozlarni ko'magida ishlab chiqarish unumdorligi 1,5 barabarga ortganini ko'rish mumkin. Viloyatning Qo'qon shahrida joylashgan "Istiqlol" non va makaron mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonasiga Italiyadan zamonaviy asbob-uskunalar olib kelib o'rnatildi [5].

Dastlabki yillarda viloyatning ishlab chiqarish quvvatini oshirish bilan birgalikda viloyatning eksport salohiyatini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Tadqiq etilayotgan davrda raqamlarga e'tibor qaratilsa, 1992 yilda 8 mlrd 811 mln so'mlik, 1993 yilga kelib esa 15 mlrd so'mlik mahsulot horijiy davlatlarga eksport qilinganini ko'rish mumkin. Eksport qilingan mahsulotlar orasida paxta tolasi, neft mahsulotlari, mineral o'g'itlar, gazlama va konserva mahsulotlari yetakchilik qilgan [6].

Ijobiy natijalarga erishishda avvalo ishlab chiqarishga hamkorlik aloqalari orqali zamonaviy texnika va texnologiyalarning jalb qilinishini ta'kidlab o'tish joiz. Ishlab chiqarish korxonalaridagi eskirgan texnika va texnologiyalardan voz kechilib, ularning o'rnini zamon talabiga mos bo'lgan asbob-uskunalar bilan jihozlanishi korxonlardagi ishlab chiqarish quvvatini bir necha borabarga oshirgan. Bunda asosan dunyoning yetakchi mamlakatlaridan xususan Italiya, Germaniya, Shveysariya, Yaponiya kabi davlatlardan olib kelib o'rnatilgan zamonaviy texnika va texnologiyalar samarali ijobiy natijalarga erishishdagi texnik turtki bo'lganini kuzatish mumkin.

1995 yil 21 fevraldagi 60-sonli qaroriga asosan Farg'ona shahridagi "Farg'ona poyabzal" xissadorlik jamiyati negizida Germaniya Respublikasining "Salamander" firmasi bilan dastlab, 150 ming nemis markasi miqdoridagi horijiy investitsiya kiritilishi bilan "Uzsalaman" qo'shma korxonasi tashkil etildi. Qo'shma korxonada 1995 yil 20 noyabrda ilk mahsulotini ishlab chiqargan bo'lsa 2004 yilgacha 107 xil poyabzal modellarini o'zlashtirib ishlab chiqara boshladi [7].

Farg'ona viloyatida 1995 yilga kelib, 37 ta qo'shma korxonalar tashkil etilgan bo'lib, ularning nizomiy jamg'armasiga xorijiy sarmayadorlar tomonidan kiritilgan sarmoya miqdori 5 mln. 795 ming AQSh dollarini tashkil etgan [8].

1997 yilga kelib viloyatda 75 ta chet el investitsiyalari ishtirokida qo'shma korxonalar davlat ro'yxatida o'tgan bo'lsa ularning 49 tasi faoliyat ko'rsatib qolgan 20 tasida qurilish ishlari olib borilgan 6 ta qo'shma korxonada esa moliyaviy

muammolar tufayli o'z faoliyatini to'xtatgan. Viloyatda faoliyat olib borayotgan qo'shma korxonalar asosan sanoat ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va savdo vositachilik faoliyatini olib bormoqda. Ushbu qo'shma korxonalar yil davomida 44,5 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib nisbatan ko'rsatilgan. Bu ko'rsatkichlar o'tgan 1996 yilga nisbatan taqqoslanga 1,9 mlrd so'mga yoki 1,7 martaga ortgan [9].

Respublikaning eng asosiy vazifalaridan biri qo'shma korxonalar tashkil etish, ilg'or xorijiy texnologiyalar asosida ishlab chiqarish korxonalarini tashkil qilish hamda birinchi navbatda aholining ehtiyojlarini uchun zarur bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish va shu asnoda eksport ishlarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Farg'ona viloyatida ham 1997 yilda tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlantirish borasida amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, viloyatda 1997 yilda 217 mln, AQSH dollariga teng mahsulotlar xorijiy davlatlarga eksport qilinishiga erishilgan bo'lsa, shunga mutanosib ravishda viloyatda 90 mln AQSH dollar miqdoridagi import mahsulotlari olib kelingan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 18 noyabrdagi qarori asosida Farg'ona viloyatida ham chet ellik hamkorlarni izlash, aksiyadorlik jamiyatlarini rivojlantirish uchun zarur mablag'larni jalb etish maqsadida 1999 yilda hukumat tender komissiyasiga 3 ta taklif Quvasoy shahridagi "Kvarts" aksiyadorlik jamiyatining 2,6 mln AQSh dollariga teng aksiyalari, Farg'ona "Sun'iy charm" aksiyadorlik jamiyatining 1,5 mln AQSh dollariga teng aksiyalari hamda, Farg'ona shahar 21-chi avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchasining 40 ming AQSh dollariga teng aksiyalari chet el investorlariga sotish uchun xujjatlashtirilib topshirildi. Yil yakuniga kelib, Farg'ona "Sun'iy charm" aksiyadorlik jamiyatining 325 ming AQSh dollariga teng aksiyalari Germaniyaning "Luferr" qo'shma korxonasiga, Farg'ona shahar 21-chi avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchasining aksiyalari Qirgiziston Respublikasining "Aziya-Ekspress-Bishkek" qo'shma korxonasiga sotildi. "Farg'ona poyabzal" aksiyadorlik jamiyatining aksiyalarini Germaniyaning "Evimeks" firmasiga, Quvasoy shahridagi "Kvarts" aksiyadorlik jamiyatining 2,6 mln. AQSh dollariga teng aksiyalari Irlandiyaning "Strasman" firmasiga, "Qo'qon shoxi atlas" aksiyadorlik jamiyatining 163 ming AQSh dollariga teng aksiyalari Rossiyaning "Kulon" firmasiga, "Qo'qon poyabzal" aksiyadorlik jamiyatining 1,3 mln. AQSh dollariga teng aksiyalari Chexiyaning "Svit-Sevo" firmasiga, "Rishton mebel" aksiyadorlik jamiyatining 202 ming AQSh dollarlik aksiyalari Italiyaning "Koimpeks" firmasiga sotish uchun shartnomalar tuzilgan [10].

Respublikaning aholi zich joylashgan Farg'ona vodiysi, xususan Farg'ona viloyatiga xorijiy investitsiyalarni jalb etilishi natijasida tashkil etilgan qo'shma korxonalar iqtisodiyotning turli tarmoqlarida ishlab chiqarish hajmini oshib borgan. Buning natijasida dastlabki yillarda viloyat aholisining ma'lum bir qismini ish bilan ta'minlashga erishildi. Aholining ishsiz qatlamini doimiy ish va maosh bilan ta'minlash eng dolzarb ijtimoiy masalaga aylangan. Ushbu ijtimoiy muammoni xalq etishda iqtisodiyotda yangi tarmoqlarni yaratish, hamkorlik aloqalarini mustahkamlash muhim omil bo'lib xizmat qilishi tabiiy.

Viloyat arxiv fondlarida saqlanayotgan hujjatlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, 1999 yilda "Qo'qonodeali" xissadorlik jamiyati 28,9 %, "Beshariq to'qimachilik" xissadorlik jamiyati 9,5 %, "Turon shoyisi" xissadorlik jamiyati 89,5 %, "Buorakush" hissadorlik jamiyati 58,2 %, "Mahalliy sanoat" konserniga qarashli "Chinor" korxonasi 25,9% ga kam mahsulot ishlab chiqarganini ko'rish mumkin Bunday past ko'rsatkichlarga asosiy sabablar korxonalarining aylanma mablag'lari yo'qligi, xomashyo resurslarini

yetishmasligi, korxonalaridagi mavjud asbob-uskunalarini ma'nan va jismonan eskirganligi bo'lsa, viloyatdagi korxonalarining omborlarida saqlanayotgan iste'molchilarga yuborilish lozim bo'lgan tayyor maxsulotlar qoldig'i 4 mlrd 645 mln so'mni tashkil qilgan holda, ushbu ishlab chiqarilgan mahsulotlarning sifatsizligi va qimmatligi tufayli mavjud xaridorlarda esa aylanma mablag'larning yo'qligi sabab bo'layotganligi qayd etilgan [11].

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ushbu yillarda mamlakatimiz iqtisodiy-ijtimoiy hayotida ijobiy yutuqlarni

qo'lga kiritishida qo'shma korxonalarini tashkil etishning avvalo mustahkam huquqiy asoslarini yaratilganli chet el investitsiyasining kirib kelishi hamda yirik xorijiy kompaniyalarning o'z sarmoyalari bilan iqtisodiyotimizga kirib kelishi mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish quvvatini oshirish bilan birgalikda aholining ishsiz bo'lgan qatlamini ish bilan ta'minlashda eng maqbul iqtisodiy usullardan biri deb hisoblash mumkin.

#### ADABIYOTLAR

1. Toshkent shahar.,1991-yil 12-noyabr 290-son Vazirlar Mahkamasi qarori
2. O'zME.O'n birichi jild.Toshkent,2005-yil, 203-b.
3. FVDA.Yig'ma jild 1220 ro'yxat 2 ish 58 12-15 varaqlar
4. FVDA.Yig'ma jild 1220 ro'yxat 2 ish 58 13- varaq
5. Farg'ona viloyati investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasining 2019 yil 15 fevraldagi № 01/DG-222-07-xati
6. O'RPAA Farg'ona viloyati bo'limi Fond-2048, ro'yxat 6, Ish-11-27 varaq
7. FVDA. Iqtisodiyot bosh boshqarmasining doimiy saqlovga oid hujjatlari ro'yxati.1993-2016 y.y.Farg'ona 2017.
8. G'.M.Haydarov: O'zMU xabarlari//2023,[1/9/1].40-41-b.
9. To'ychiev A.E. Namangan: "Maqsadlarimiz mushtarak" // Bozor, pul va kredit.№ 12 1999.-B.-b-13
10. O'zR PAA Farg'ona viloyati bo'limi. Fond 2048.Ro'yxat 8, Yig'ma jild 8.-9.varaq
11. O'RPAA Farg'ona viloyatibolimi Fond 2048, ro'yxat 8, ish-9. 8-9 varaqlar.



UDK: 904: 75.075 (584.4)

**Muxabbat HAMIDOVA**

*O'zMU professori v.b., t.f.d.*

*E-mail: hamidova.2002@mail.ru*

*O'zFA haqiqiy a'zosi, akademik D.Yusupova taqrizi asosida*

## TEMURIYLAR DAVRINING HIROTDAGI ME'MORIY YODGORLIKLARI TARIXIDAN

Annotation

Mazkur maqola XIV-XV asrlarda Temuriylar davlatining ikki poytaxt shaharlaridan biri – Hirotida bunyod etilgan arxitektura yodgorliklari tarixini yoritishga bag'ishlangan. Maqolada "Sharq renessansining ikkinchi bosqichi" sifatida e'tirof etilgan Amir Temur va Temuriylar davrida ilm-fan hamda madaniy sohalarida erishilgan yutuqlarning Xuroson me'morchiligiga ta'siri masalasini oydinlashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Xuroson me'morchiligida tarixiy an'analarning davomiyligi, sohada kuzatilgan yangiliklar, ushbu hudud me'moriy uslubi va bezak san'atidagi o'ziga xosliklar Hirotning mashhur me'moriy yodgorliklari misolida o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Xuroson, Hirot, XIV-XV asrlar me'morchiligi, Temuriylar davri me'moriy yodgorliklari, me'moriy uslub, me'moriy bezaklar, tarixiy an'analar, tarixiy yodgorliklarning turlari, qal'a, saroy, masjid, madrasa, minora, maqbara, xonaqoh, ziyoratgoh, bog' va chorbog'lar.

## FROM THE HISTORY OF ARCHITECTURAL MONUMENTS OF THE TIMURID'S ERA IN HEROT

Annotation

This article is dedicated to the history of architectural monuments built in Herat, one of the two capital cities of the Timurid state in the XIV-XV centuries. The article focuses on clarifying the influence of scientific and cultural achievements during the period of Amir Temur and the Timurids, recognized as the "second stage of the Eastern renaissance", on Khorasan architecture. In particular, the continuity of historical traditions in the architecture of Khurasan, the innovations observed in the field, the peculiarities of the architectural style and decorative art of this region are studied on the example of the famous architectural monuments of Herat.

**Keywords:** Khorasan, Herat, architecture of the XIV-XV centuries, architectural monuments of the Timurid period, architectural style, architectural decorations, historical traditions, types of historical monuments, fortress, palace, mosque, madrasah, minaret, mausoleum, house, temple, garden and courtyards.

## ИЗ ИСТОРИИ АРХИТЕКТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ ЭПОХИ ТИМУРИДОВ В ГЕРОТЕ

Аннотация

Данная статья посвящена истории памятников архитектуры, построенных в Герате, одной из двух столиц государства Тимуридов в XIV-XV веках. Статья посвящена выяснению влияния научных и культурных достижений периода Амира Темура и Тимуридов, признанного «вторым этапом Восточного Возрождения», на хорасанскую архитектуру. В частности, на примере знаменитых архитектурных памятников Герата изучаются преемственность исторических традиций в архитектуре Хорасана, наблюдаемые в этой области новации, особенности архитектурного стиля и декоративного искусства этого региона.

**Ключевые слова:** Хорасан, Герат, архитектура XIV-XV веков, архитектурные памятники периода Тимуридов, архитектурный стиль, архитектурные украшения, исторические традиции, типы исторических памятников, крепость, дворец, мечеть, медресе, минарет, мавзолей, дом, храм, сад и дворы.

**Kirish.** Temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonda bunyodkorlik ishlarining ko'lamini yoritishda poytaxt shaharlar – Hirot va Samarqandda amalga oshirilgan qurilish ishlari tarixiga e'tibor berish muhimdir. Mazkur davrda yaratilgan yozma manbalar hamda bizgacha saqlanib qolgan tarixiy-me'moriy yodgorliklarni o'rganishga doir ilmiy-tadqiqotlar qiyosiy tahlili mavzuga doir ko'plab qiziqarli hamda tarixiy asoslangan ma'lumotlarni bilib olish imkonini beradi. Amir Temur va Temuriylar davrining Movarounnahr hududlari, shu jumladan, Samarqandda bunyod etilgan yodgorliklari, ularning manbashunosligi, tarixshunosligi, o'rganilish tarixi, o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida avval chop ettirilgan ilmiy ishlarimizdan bilib olishingiz mumkin[17-25]. Mazkur maqolada esa Amir Temur va Temuriylar davrida Xurosonning markaziy shaharlari, xususan, poytaxt shahar Hirotida bunyod etilgan mahobatli inshootlar to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar keltirib o'tamiz.

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Temuriylar davrida Xurosonda, xususan, Hirot shahri va uning atroflarida

bunyod etilgan tarixiy inshootlar tarixiga doir ma'lumotlar ko'plab yozma manbalarda saqlanib qolgan[1-11]. Ushbu tarixiy manbalar mazkur yodgorliklarning bunyod etilishiga guvoh bo'lgan tarixchi olimlar, o'z zamonasining ziyoli qatlami tomonidan yozi qoldirilgan bo'lib, ma'lumotlarining ishonchliligi hamda ilmiy asoslanganligi bilan qimmatlidir. Bundan tashqari, mavzuni yorituvchi ma'lumotlarni Hirot shahri va uning atroflari (hozirgi Afg'oniston)da saqlanib qolgan tarixiy inshootlarni o'rganish orqali qo'lga kiritish mumkin. Mazkur maqola esa yuqorida sanab o'tganimiz tarixiy manbalar hamda mavzuda doir ilmiy-tadqiqotlar natijalarining qiyosiy tahlili asosida tayyorlandi [12-25].

- **Tadqiqot metodologiyasi.** Maqolada Hirotida Temuriylar davrida bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar tarixi tarixiylik va ilmiylik tamoyillari asosida yozma hamda moddiy manbalarni mavzuga doir ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan qiyosiy tahlil etilgan holda, tizimlashtirish, xronologik davrlashtirish, xolis ilmiy yondashuv asosida yoritilgan. Shuningdek, maqolada keltirilgan tarixiy materiallar, xususan,

XIV-XV asrlarda Xuroson me'morchiligida kuzatilgan o'zgarishlar, sohada ilm-fan yutuqlaridan foydalanishning ijobiy natijalari boshqa ijtimoiy-iqtisodiyfanlar tadqiqot usullaridan foydalangan holda tahlilga tortilgan.

- **Tahlil va natijalar.** Manbalarda qayd etilishicha, Temuriylar davrida bunyodkorlik ishlari saltanatning poytaxt shaharlarida keng ko'lamda amalga oshirilgan. XV asrga oid Hirot me'morchilik maktabining nodir namunalari o'sha davrdagi qurilish ishlari ko'lamining qay darajada bo'lganidan darak beradi. Temuriylar davrida Hirotida bunyod etilgan mashhur me'moriy inshootlar sirasiga Hirot qal'asi, Hirot jome' masjidi, Gavharshodbegim va Musallo me'moriy majmualari, Alisher Navoiy maqbarasi, nafaqat poytaxt shahari balki Xurosonning boshqa bir qator markaziy shaharlarida ham bunyod etilgan bog'u-rog'lar, ularni bezab turgan muhtasham ko'shklar, karvonsaroylar va boshqa ijtimoiy inshootlarni kiritish joizdir.

O'z davrining tarixchi olimlari tomonidan alohida e'tibor bilan ta'rif berib, ma'lumotlar yozib qoldirilgan Musallo me'moriy majmuasi Shohrux Mirzo davrida ya'ni 1417 yilda bunyod etilgan. Manbalarda ushbu yodgorlikni qurilishi Sherozlik me'mor Usta Qavomiddin bo'lganligi to'g'risida yozib qoldirilgan [5,6,12,15]. 1885 yilda uni ingliz harbiylari dinamit qo'yib portlatib yuborgan. Yodgorlikning saqlanib qolgan qismi 1931 va 1951 yillardagi kuchli zilzila natijasida vayronaga aylangan.

Temuriylar davrida Hirotida bunyod etilgan yodgorliklardan yana biri – Gavharshodbegim maqbarasidir. Ushbu yodgorlikning ko'rinishi va hajmi Samarqanddagi Amir Temur maqbarasini aynan takrorlaydi. Me'moriy bezaklari ham shunga mos ravishda hashamatli bo'lgani, ammo bu ikki inshoot bezaklari shakl jihatidan bir-biridan farqlangani haqida ma'lumotlar mavjud. Xususan, Amir Temur maqbarasi ichki bezaklari nafis islamiy hamda epigrafik bezaklarning nisbati ko'proq. Maqbara ichki bezaklarining aksariyat qismi tilladan ishlangan. Gavharshodbegim maqbarasi bezaklaridagi naqshlarda islamiy naqshlar turi va bezaklar ulug'vorligini oshirishda ishlatilgan tilla miqdori nisbatan kamligi, hamda girih naqshlar ko'pligi bilan farqlanadi [13].

Alisher Navoiy maqbarasi (XV asr) esa ixcham va me'moriy bezaklari soddaligi bilan o'ziga xos ko'rinish kasb etgan. Temuriylar hukmronligi davrida bunyodkorlik va qurilish ishlariga bosh bo'lgan usta-me'morlar to'g'risida ham ma'lumotlar saqlanib qolgan. Xususan, Shohrux Mirzo davrida mavjud me'moriy inshootlarni tiklash va yangi bunyod etilgan mashhur me'moriy yodgorliklarning qurilishida Ustad Qavomiddin me'mor va Najmiddin Buxoriy, Sulton Husayn Boyqaro davrida G'iyosiddin Muhammad Bog'bon avlodlaridan Amir Jaloliddin Mahmud va Amir Nizomiddin, Sulton Badiuzzamon hukmronligi davrida esa Qandahor qal'asi hamda uning atrofida olib borilgan qurilish ishlariga Amir Shujo'itdin Zu'l-nun Arg'un va uning avlodlari rahbarlik qilgani haqida ma'lumotlar mavjud [9].

Xuroson me'morchilik maktabining yorqin namunasi bo'lgan inshootlardan yana biri Hirot Masjidi jome'sidir [12]. Shaharning shimoli-sharqiy qismida, ya'ni Xush va Qipchoq darvozalari o'rtasida joylashgan ushbu masjid hozirgacha saqlanib qolgan. Manbalarda ushbu inshootning qanchalik ulug'vor va mustahkam bo'lganligi haqida ma'lumotlar saqlanib qolgan. Uning qurilishi uzoq davom etgan bo'lib, 1174-1206 yillarda hukmronlik qilgan Abdulfatx G'iyosiddin ibn Som davrida boshlanib, ukasi Sulton Shahobiddin davrida davom ettirilgan va Sulton G'iyosiddin Mahmud davrida tugallangan. Mo'g'ullar bosqini davrida vayronaga aylantirilgan. Masjid G'iyosiddin Kurt (hukmronlik yillari 1304-1328 y.) va uning o'g'li Malik Mu'izziddin Husaynlar (hukmronlik yillari 1331-1370 y.) tomonidan qayta tiklangan. Mazkur masjidda Shohrux Mirzo davrida Xo'ja Majiddin

Muhammad rahbarligida ta'mirlash ishlari amalga oshirilgan [16]. Sulton Husayn Boyqaro hukmronlik davrida (1469-1506 yillar) esa kuchli zilzila ta'sirida vayron bo'lgan Jome' masjidi Alisher Navoiy sa'y-harakatlari bilan qayta tiklangan. Xususan, bunda masjidning peshtoq, gumbaz va ayvon qismlari tiklangan, shuningdek, avvalgi tiklashlar jarayonida yo'l qo'yilgan xatoliklar bartaraf etilgan.

Manbalarda keltirilishicha, masjidni tiklash ishlari ikki yil, ya'ni 1498-1500 yillarda davom ettirilgan. Tiklash va ta'mirlash ishlarida Havofdan olib kelingan ganch, marmartosh keng qo'llanilgan. Masjidning yangi minbari ham marmartoshdan yasalgan. Peshtoq, ayvon va supalari rangli suratli naqshlar bilan bezatilgan. Gumbazni tiklashda ishlatilgan qurilish ashyolariga alohida e'tibor qaratilgan. Uning epigrafik naqshlari – kitobalar zamonasining mashhur hattoti Miroq Naqqosh tomonidan amalga oshirilgani haqida ma'lumotlar mavjud. Masjidni tiklash ishlarida 100 dan ortiq usta-me'morlar ishtirok etgani ta'kidlab o'tilgan. Ammo ustalardan faqatgina Miroq Naqqosh va sangtarosh usta Ustad Shamsiddinning nomi keltirib o'tilgan. Tiklash ishlarini Alisher Navoiy har kuni kelib kuzatgani hamda unda faol ishtirok etgani haqida ma'lumotlar mavjud [5,7,9,16].

Temuriylar davrida bunyod etilgan yodgorliklardan yana biri Dor ul-Xuffoz hisoblanadi. Ushbu xonaqoh nomi "Qur'on qiroatchilari uyi" degan ma'noni anglatadi [14]. Dor ul-Xuffoz Masjidi jome'ning shimoliy tomonida joylashgan bo'lib, Sulton Husayn Boyqaro davrida qurilgan. Uning ichki devor va shift bezaklari tillakori bezaklar bilan bezatilgan. Xonaqoh ayvonlari ham binoning umumiy ko'rinishiga mos ravishda bezatilgan bo'lgan.

Sulton Husayn Boyqaro davrida bunyod etilgan masjidlar – Masjidi Saripuli Injildir. Uning shimoliy tarafida shifti tillakori bezaklar bilan bezatilgan Dor ul-huffoz masjidi joylashgan. Ushbu masjidlar yaqin atrofida istiqomat qilgan aholi namoz o'qilgan va Sulton Husayn haqqiga duo qilingan. Bundan tashqari, Masjidi Sari kuchai Ulug'ota, Masjidi Til qatyon, Masjidi Sari kuchai Amir Islom Barlos, Masjidi Chohorsuk Mirzo Alouddavla, Jahonnoma saroyi yaqinida qurilgan masjid, Masjidi Seraxs, Jahonnoma saroyi yaqinidagi masjid, Qalandar mahalla masjidi, Bog'i-Zog'on yaqinidagi masjid, Tarhonion mahalla masjidi, Mir Odil mahalla masjidi, Puli Kard Jome' masjidi, Ziyoratgoh jome' masjidi, Koriya Bahra masjidi, Izfazor jome' masjidi, Astrobod jome' masjidi, Mir Alisher jome' masjidi, Hirot jome' masjidi va boshqalar ham yerlik aholiga xizmat qilgan [7,10].

Shuningdek, manbalarda Sulton Husaynning vazirlari va boshqa mulozimlar tomonidan qurilgan masjidlar: Hirot shahrida Jaloliddin Qosim Faranxudiy masjidi, Balxda bunyod etilgan Jome' masjidi, shaharning Dar-i Xush davozasi tashqarisida Xo'ja Afzaliddin Muhammad Kermoniy tomonidan bunyod etilgan Jome' masjidi, Amir Shuja'addin Zu'l-nun va uning avlodlari tomonidan tiklangan Qandahor yo'lidagi masjid va boshqalar haqida ma'lumotlar mavjud [8,11]. Hirot shahri atrofidagi masjidlarining aksariyat qismi Temuriylar davridan avval qurilgan, ammo ushbu davrda tiklangan hamda ta'mirlangani haqida ma'lumotlar mavjud. Xususan, Masjidi Amir Feruzshoh [6] va Amir Abdulvohid ibn Mussamma Ziyoratgoh Jome' masjidi [7] shular jumlasidandir.

Hirotida Temuriylar davrida bunyod etilgan bog'lar quyidagilar: Bog'i Zog'on Shohrux Mirzo davrida qurilishi boshlangan va Sulton Husayn davrida davom ettirilgan [2]. Ushbu bog' haqida Fasih Havofiyning "Mujmali Fasihi" asarida keltirilishicha, "Amir sohibqiron tomonidan Xo'ja Faxriddin Ahmad Tusiy va Ahmad ibn shayx Hasanning Hirotida favqulodda vakil etib tayinlanishi, Xo'ja Faxriddin Tusiyning Hirotga kelishi, uning Bog'i Zog'ondan qaytgach, Oliy janoblari xoqon (Shohrux Mirzo)ning devonbegisi Ali G'urbo ismi bilan mashhur Xo'ja Ali Muhammadshohni

Darvozai Malikda osilishi[5,6], Jumod al-avval oyining o'ninchi kuni jumada (1412 yil, 18 avgust) sulton (Shoxruhning) o'g'li, sulton Ulug'bek ko'ragonning qizi – Xasiba Sulton xonzodabegimning Hirotda Bog'i Zog'onda tug'ilishi munosabati bilan shaharni bezatish va turli tantanali bayram, surur, sayr-tomoshalar tashkil qilinishi[6] to'g'risidagi ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Shuningdek, Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dayn" asarida keltirilishicha, "Sulton Ulug'bekning o'g'li Abdulatifning xatna to'yi Bog'i Zog'onda o'tkazilgan"[1].

Bog'i Safed Shohruh Mirzo tomonidan bunyod etilgan. Fasih Havofiyning ma'lumotlariga ko'ra, Bog'i Safed 1411 yilda qurila boshlangan. Zulqa'da (1411 yil, 20 mart) oyining yigirma to'rtinchi kuni, jumada, Hirotda Bog'i Safedning qurilishi boshlangan. Shaharning go'zal manzara va qulay tabiiy sharoitli ushbu bog'ida Hirotda me'orchilik maktabi an'analari asosida saroy bunyod etilgan. Bog' saroyi temuriy shahzodalar qarorgohi hisoblangan. Keyinchalik unda shaharning e'tiborga molik shaxslari: shayxlar, saidlar, muhandis va hunarmandlar ham istiqomat qilishgan. Bog'i Zubayda Fasih Havofiy ma'lumotlariga ko'ra, Shoxruh Mirzoning o'g'li Mirzo Jo'qi Muhammad (804/1402 yil 27 aprel) bunyod etgan bog'lar sirasidan. Bog' markazida Amir Temur bog'laridagi kabi ko'shk bo'lgan. Unga ham Xurosonda tengi yo'q bog'lardan biri, deya ta'rif berilgan[6].

Bog'i Murg'oni Sulton Husayn Boyqaro tomonidan qurilgan. XVI asr boshlarida ham gullab yashnab turgan. Taxti Saripuli Sangkashon jannatmonand bog' bo'lib, Xurosonda undan go'zalroq joy bo'lmagani ta'kidlab o'tilgan. Bog'chai Taxti Gorizon Hirotning jannatmakon bog'laridan biri bo'lgan. Bog'chai Gozurgoh manbalarda bog' o'rtasidan Juyi Sulton nomi bilan keltirilgan ariq qazib o'tkazilgani haqida ma'lumotlar mavjud. "Boburnoma"da, Alisher Navoiy bog'i deb ham nomlangan[2].

Bog'i Boboi Suxt Bog'chai Gozurgohning shimoliy tomonidan joylashgan. Manbalarda, Alisher Navoiy ushbu bog'da istiqomat qilganligi yozib qoldirilgan. Bog'i Bayt ul-omonda ham yozgi saroy mavjud bo'lgan. Bu bog'larda hayit kunlari bayram munosabati bilan ehsonlar tarqatilganligi haqida ma'lumotlar mavjud[7].

Bog'i Jahonoro shaharning shimoli-sharqiy tomonida joylashgan. Bog'da ixcham va chiroyli saroy joylashgan. Akademik D.Yu.Yusupova keltirib o'tgan ma'lumotlarga ko'ra, uning hududi Bog'i Murod deb nomlangan kichik bog' yaratilishi munosabati bilan ikki qismga bo'lingan. Bog'i Nav Badiuzzamonga qarashli bo'lgan. Shahzoda Muzaffar bog'i deb ham nomlangan. Taxti Safar esa tog'da qurilgan. Uning yaqinida Jahonnamo ko'shki joylashgan. Davlatxon saroyi Sulton Husaynning vaziri Majiddadin tomonidan bunyod etilgan[16].

Bog'i Amir ul-mo'minin Ali ibn Abu Tolib Balxdan uch farsax uzoqlikda joylashgan. Xondamir asarlarida, ushbu bog'da har kuni miskinlarga oziq-ovqat va kiyim-kechak ulashilgani haqida yozib qoldirilgan[9]. Manbalarda keltirib o'tilgan ushbu bog'larning aksariyat qismi Temuriylar davridan oldin qurilganligi ta'kidlab o'tilgan. Ammo ularning ta'mirga muhtojlari temuriy hukmdorlar hamda Alisher Navoiy rahnamoligida qayta tiklangan. Shuningdek, nomlari keltirilmagan, lekin qisqacha tavsifi berilgan bog' va saroylar haqida ham ma'lumotlar mavjud. Masalan, Hirotning sharqiy va shimoliy qismida Sulton Badiuzzamon tomonidan qurilgan ko'rkam saroy hamda Taxti safar yaqinida bunyod etilgan bog' haqidagi ma'lumotlar fikrimizga dalil bo'ladi[9,16].

Hirotning diqqatga sazovor me'moriy inshootlaridan yana biri ko'priklardir. Manbalarda mamlakat siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutgan ko'priklar to'g'risida ham ko'plab ma'lumotlar saqlanib qolgan. Xususan, Xondamir asarlarida quyidagi ko'priklar sanab o'tilgan va ular to'g'risida qisqacha ma'lumot berilgan: Puli Se Palak, Puli Tuleki (Hirotning shimoli-sharqiy hududidan kesib o'tuvchi ariq ustiga qurilgan), Puli Saksalmon, Puli Chexil duxtaron (Qirq qiz ko'prigi), Puli Tarnob, Puli Qalandaron, Puli Kazbonon, Puli Boyxo'ja, Puli va bandi Xayrabod, Puli Juzjonon, Puli Nigor, Puli Naxri arab, Puli Hijron, Puli bandi Tark, Puli Kard, Puli darqara, Ahmad Mushtoq ko'prigi (Balx hududidan o'tgan daryo irmog'i ustida qurilgan) Puli Milon ko'prigi. Heriro'd daryosi ustiga qurilgan Puli Milon ko'prigi atrofidagi yerlar saylgoh bo'lgan. Bu g'ishtin ko'priklar g'oyat ko'hna bo'lib, mahalliy xalq orasida uni Bibinur ismli zohid ayol tovuq sotib qurdirgan, degan rivoyat mavjud[3,9,16].

- **Xulosa va takliflar.** Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish zarurki, Amir Temur va Temuriylar davri me'moriy merosi tarixi hamda mazkur masala tarixini yorituvchi manbalarni qiyosiy o'rganish asosida quyidagilarni ta'kidlab o'tish mumkin. Ushbu davrda Movarounnahr va Xuroson me'morchilik maktablari asrlar davomida mintaqaga xos me'morchilik tarixiy an'alarini davom ettirish bilan birgalikda, har biri o'ziga xos hududiy farqlarga ega tarzda rivojlantirilgan. Xususan, mahalliy me'morchilik ushbu davrda yuqori darajalarga ko'tarilgan ilm-fan yutuqlaridan foydalangan holda, yangi me'moriy uslub, me'moriy bezaklar kompozitsiyasi hamda konstruksion kashfiyotlar bilan boyitilgan. Buning natijasida inshootlarning hamji, balandligi, shakli, bezaklari avvalgi davrlarga nisbatan sezilarli darajada mahobatli ko'rinish olgan. Temuriylar saltanati hududlarida, xususan, Samarqand va Hirotda bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar hashamati fikrimizga dalil bo'ladi. Imoratlarining mahobatli ko'rinishi ularning rang-barangligi me'moriy bezaklari bilan ham bog'liqdir. Ushbu davr me'morchiligi bezaklaridagi e'tiborga molik ijobiy o'zgarishlarni me'moriy bezak fonining rangsiz oq-sarg'ish fondan rangli fon (oq, sariq, tillarang, yashil, moviy ranglar uyg'unligi) ga o'tilganligi hamda bezak turlarining orttirilganligi (aksariyat hollarda islamiy, girix, epigrafik, astral, zoomorf bezaklarning uyg'unligi)da o'z aksini topgan. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, bu davrda Samarqand va Hirotda me'morchilik maktablari o'zining eng yuqori rivojlanish darajasiga yetgan. Xususan, milliy me'morchilikda qo'llanilgan me'moriy konstruksiyalar murakkabligi bunga yaqqol misol bo'ladi. Binolar qurilishida qo'llanilgan yangi uslublar sohaga oid kashfiyotlar darajasiga ko'tarilgan. Mintaqa me'morchiligida bu kabi yuksalish Temuriylar davridan avval ham keyin ham kuzatilmagan. Bunga sabab, Amir Temur tomonidan boshlangan keng ko'lamli bunyodkorlik ishlarining uning vorislari tomonidan munosib tarzda davom ettirilganidir.

Umuman olganda, Temuriylar davrida Xuroson hududlarida olib borilgan bunyodkorlik ishlari tarixi alohida ilmiy muammo sifatida chuqur tadqiq etilmagan. Qolaversa, mazkur mavzuning turli jihatlarini yoritib beruvchi ilmiy maqolalar ham sanoqli. Shundan kelib chiqqan holda, Amir Temur va Temuriylar davrida Xuroson me'morchiligi, xususan, Hirotda shahri va uning atroflarida bunyod etilgan yodgorliklar tarixini chuqur o'rganish, Hirotda me'morchilik maktabining o'ziga xos an'alarining tarixiy ahamiyatini asoslab beruvchi yangi ilmiy maqolalar chop ettirilishi maqsadga muvofiqdir.

#### ADABIYOTLAR

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матлаи саъдайн ва мажмаи бахрайн. II ж., 1-к. / Форс-тожик тилидан таржима, кириш сўзи ва изоҳли луғатлар А. Ўринбоевники. – Тошкент, 1969. – Б. 62-63.
2. Бобур Захриддин Муҳаммад. Бобурнома. – Тошкент, 1989. – Б. 197, 223.

3. Мирхон. Раузат ас-сафо. Бомб. изд. Т. VII. – Бобей, 1281/1864-1865 – С. 4.
4. Фасих Хавафий. Мужмал, қўлёзма. РА. Осие халқлари институтининг СПб. бўлими қўлёзмаси. В-709. Инв. № С-800дан копия.
5. Фасих Ахмад ибн Джалал ад-Дин Мухаммад ал-Хавафи. Маджмал-и фасихи (Фасихов свод) / Перевод с персидского, предисловие, примечания и указатели Д.Ю.Юсуповой. Отв. редактор А. Уринбаев. – Тошкент: Фан, 1980. – С. 49.
6. Фасих Хавафий. Мужмал Фасихи / Таржима, кириш, изоҳлар ва кўрсаткичлар Д.Ю. Юсупованики. – Тошкент, 2018. – Б. 26, 122, 164, 214, 223, 367, 383.
7. Хондамир. Хуласат ал-ахбор. ЎЗР ФАШИ қўлёзмаси. Инв. №3. – Л. 4706-4726, 4736-477аб; 478а-478б.
8. Хондамир. Хабиб ас-сияр. ЎЗР ФАШИ қўлёзмаси. Инв. № 2153.
9. Хондамир. Ма'асир ал-мулук. Тег. изд. 1372/1994. – Л. 175, 176, 177, 178.
10. Хондамир. Макарим ал-ахлак. Кабульс. изд. 1260/1981 – Л. 60-64, 139а, 147а, 151а.
11. Хондамир. Дастур ал-вузаро. тег. изд. 1317/1938-1939. – Л. 102б.
12. Белиницкий А.М. Историческая топография Герата XV в. // Алишер Навои. Сб. Материалов. – Москва-Ленинград, 1946. – С. 185-186, 199;
13. Денике Б.П. Архитектурный орнамент Средней Азии. – Москва-Ленинград, 1939. – С. 173-174, 204.
14. Маньковская Л.Ю. Қўш мадраса [Бухородаги архитектура ёдгорликлари]. – Тошкент: Ўзбекистон, 1968. – С. 201.
15. Петрущевский И. П. Ислам в Иране в VII-XV веках. – Москва-Ленинград, – С. 89-90.
16. Юсупова Д.Ю. Жизнь и труды Хондамира. – Ташкент, 2006. – С. 177-178, 188-198.
17. Хамидова М.С. Совет даври тадқиқотларида Самарқанд меъморий ёдгорликлари тарихшунослиги // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2014. – №1. – Б. 50-54.
18. Хамидова М.С. Шарқ миниатюралари – Ўрта Осие меъморчилиги тарихи бўйича муҳим манба // Имом Бухорий сабоқлари. – Самарқанд, 2016. – №3. – Б. 69-70.
19. Хамидова М.С. XIX аср охири–XX аср бошларида Туркистон меъморий ёдгорликларининг ўрганилиши (архив хужжатлари асосида) // Мерос. – Тошкент, 2018. – №1. – Б. 56-61.
20. Khamidova M.S. Study of Architectural Monuments of Uzbekistan (The Second Half of XIX–XX Centuries) // International Journal of Scientific & Technology Research. Volume 8, Issue 11, November 2019. – Pp. 1353-1358.
21. Хамидова М.С. Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликларининг ўрганилиши. – Тошкент, 2021. – 320 б.
22. Хамидова М.С. Архив хужжатларида Ўзбекистон меъморий ёдгорликларининг ўрганилиш тарихи. – Тошкент, 2021. – 48 б.
23. Хамидова М.С. Темурийлар даври меъморий ёдгорликларининг хорижий тарихшунослиги хусусида (XIX аср охири) // ЎзМУ хабарлари. – Тошкент, 2021. – №1/5. – Б. 30-33.
24. Хамидова М.С. XIX аср охири–XXI аср бошларида Ўзбекистон меъморий ёдгорликларини ўрганишга бўлган муносабат тарихидан // Ўтмишга назар. – Тошкент, 2021. – 4-жилд, №4. – Б. 81-92.
25. Хамидова М.С. Ўзбекистон худудидаги Амир Темур ва Темурийлар даври меъморий ёдгорликлари тарихи. Тарих фанлари доктори (DSc) ил. дар. дисс. – Тошкент, 2022. – 320 б.



UDK:1:316(575.1)

*Uktam XUDAYAROV,*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali dosenti*

*E-mail: laziz.eshonqulov@gmail.com*

*SamDU milliy g‘oya va falsafa kafedrasida dotsenti L.Djo‘rayev taqrizi asosida*

#### O‘ZBEKISTON KOREYSLARI TARIXIDAN: O‘ZBEKISTON VA KOREYA HAMKORLIGI DOIRASIDA

Annotsatsiya

Maqolada mustabid sovet hokimiyati yillarida markazning buyrug‘iga asosan O‘zbekistonga ko‘chirib keltirilgan millat vakillaridan biri koreyslar haqida so‘z boradi. Ushbu millat vakillarining soni va ijtimoiy tarkibi haqidagi ma‘lumotlar sobiq sovet hokimiyati yillarida o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish natijalari asosida tahlil qilinib arxiv hujjatlari va statistik ma‘lumotlari asosida yoritildi. Mavzu mohiyatini o‘rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanib bu ikki xalq o‘rtasida mustahkam do‘stlik aloqalarini mustahkamlaydi va O‘zbekistonda yashayotgan koreys millati vakillarining tarixiy xotirasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** Globallashuv, BMT, YNHT, Milliy tarkib, aholi ro‘yxatlari, O‘zbekiston SSR XKK, etnik aralash oilalar.

#### ИЗ ИСТОРИИ КОРЕЙ УЗБЕКИСТАНА: В РАМКАХ СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА И КОРЕИ

Аннотация

В статье речь идет о корейцах, одной из этнических групп, депортированных в Узбекистан в советское время по распоряжению центра. Данные о численности и социальном составе представителей этой нации были проанализированы на основе результатов переписи населения, проведенной в годы бывшего Советского Союза и охваченной на основе архивных документов и статистических данных.

Изучение сути темы является одним из актуальных вопросов на сегодняшний день, что укрепит прочные узы дружбы между двумя народами и послужит укреплению исторической памяти корейского народа, проживающего в Узбекистане.

**Ключевые слова:** Глобализация, Организация Объединенных Наций, Организация Объединенных Наций, Национальный состав, реестры населения, КПП Узбекской ССР, этнически смешанные семьи.

#### FROM THE HISTORY OF KOREAS OF UZBEKISTAN: WITHIN THE FRAMEWORK OF COOPERATION OF UZBEKISTAN AND KOREA

Annotation

The article deals with Koreans, one of the ethnic groups deported to Uzbekistan during the Soviet era by order of the center. The study of the essence of the topic is one of the most pressing issues today, which will strengthen the strong ties of friendship between the two peoples and serve to strengthen the historical memory of the Korean people living in Uzbekistan.

**Key words:** Globalization, United Nations, United Nations, National composition, population registers, Uzbek SSR CRC, ethnically mixed families.

Hozirgi globallashuv jarayonlarida dunyodagi mamlakatlarning aksariyati ko‘pmillatli, ko‘p madaniyatli xarakterga ega bo‘lib bormoqda. Jahon tajribasidan ma‘lumki, davlatning barqarorligi ko‘p jihatdan millatlararo munosabatlardagi turli muammolarni hal yetish qobiliyatiga bog‘liqdir. Keyingi vaqtlarda, dunyodagi ayrim hududlarda diniy va yetnik mojarolar, shu jumladan, millatlararo nizolar kuchayotgan bir sharoitda, bu muammo ayniqsa muhim o‘ringa chiqib boryapti. Hozirda BMT, YNHT va boshqa halqaro tashkilotlar ana shu masalalarni bartaraf qilish borasida qator ishlarni amalga oshirmoqda.

Jahon tarixi kontekstida sobiq sovet ittifoqi davlatlari tarixi muhim o‘rin yegallaydi. Bugungi kunda dunyoning ko‘pgina ilmiy markazlarida sovetlarning ittifoqdosh respublikalarda “yagona sovet xalqi” ni yaratishga qaratilgan amaliyotlari, shuningdek, milliy va ijtimoiy muammolarni hal qilish borasida yo‘l qo‘ygan xato va kamchiliklarini o‘rganishga bag‘ishlangan qator ilmiy loyihalar ustida ish olib borilmoqda. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ham bu borada samarali ishlar amalga oshirildi ammo, bu ishlar ko‘lami va qamrovi jihatdan mavzu ahamiyatini to‘liq ochib bera olmaydi shuning uchun ham uni o‘rganish va ilmiy tahlil qilish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik ruhi bilan ajralib turadigan O‘zbekiston va uning nihoyatda boy tarixiy merosi, madaniyati va san‘ati dunyo ahlining doimiy qiziqishini uyg‘otib, keng jamoatchilikni o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Istiqloq yillarida O‘zbekistonda tarix fani rivojlanishi yangi bosqichga ko‘tarilib, tadqiqotlar ko‘lami kengaydi, jumladan, sobiq sovet davri tarixi bo‘yicha yangi izlanishlar olib borildi. Shu o‘rinda, mustabid tuzum hukmronligi yillarda amalga oshirilgan milliy siyosatning O‘zbekistondagi holati, shuningdek ijtimoiy siyosat va uning aholi tarkibiga ko‘rsatgan ta‘sirini aniq va izchil ma‘lumotlarga tayangan holda tahlil yetish, yurtimiz aholisining turmush-tarzi, ijtimoiy hayotda yuzaga kelgan muammolarni o‘rganish yeng muhim va dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Ushbu ilmiy maqolada biz, biz bilan yonma-yon yashab respublikamizning taraqqiyotiga o‘zlarining munosib hissaralari qo‘shib kelayotgan millat vakillaridan biri koreys millatining mily tarkibini sovet davridagi tarixini yoritishga harakat qildik, hamda sobiq sovet tuzumi yillarida O‘zbekistonda yashagan koreys millati vakillarining soni, ijtimoiy tarkibi, turmush tarzi va boshqa jihatlarini o‘rganishda sovet tuzumi yillarida o‘tkazilgan aholini ro‘yxatga olish natijalari asosida tahlil qilishni lozim topdik. Sababi, bu masala o‘zbek va koreys tarixchi olimlari tomonidan haligacha yetarli darajada

o'rganilmagan. Muammoni o'rganish xalqlarimizning tarixiy xotirasini mustahkamlash o'zbek koreys xalqlari davlatchiligi tarixida ham muhim o'rin egallaydi. Alohida takidlab o'tish joizki, mustabid tuzum yillarida ham mavzu doirasida bir qator olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ammo yaratilgan tadqiqotlarda va ularda keltirilgan dalillarda sovet tuzumi mafkurasi va ular tomonidan ilgari surilgan g'oyalar aks yettirilgan. Markaziy Osiyoda yashayotgan millat va yelatlarining taqdiri ularning milliy urf-odatlarini va an'analarni saqlab qolish va kelajak avlodga bekamu-ko'st yetkazib berish haqida deyarli biror-bir gap so'z aytilmagan.

Sovet davrida yaratilgan ilmiy asarlarning asosiy qismida muammoni o'rganishga biryoqlama ye'tibor qaratilgan, ularda yagona sovet millatini yaratish va shu orqali milliy masala muammosini hal qilish asosiy vazifa qilib ko'rsatilgan. Bundan tashqari respublikaga markaz tomonidan turli millatlarga mansub kadrlar to'dasining kirib kelishi respublika iqtisodiyotini ko'tarish, ishchilar orasida malakali kadrlar sonini yanada oshirishga qaratilayotgan jarayon sifatida qaralgan. Mustaqillik yillarida sobiq sovet davri tarixida O'zbekistonda yashayotgan millat vakillari tarixini o'rganish borasida bir qator olimlarimiz tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda Jumladan, D.Alimova, A.AGolovanov, V.A.Germanov, Q.Rajabov, M.Haydarov, R.Shamsuddinov, N.Karimov, Ye.Yusupov, O. Ata-Mirzayev, V.Genshke, R.Murtazayeva, A.Saliyev, B.V. Xasanov, D.Bobojonova va boshqa olimlarimiz tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni bunga misol tariqasida keltirish mumkin. Yuqorida nomlari keltirilgan olimlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy asarlar, darsliklar, o'quv qo'llanma, monografiya va turli mavzulardagi risolalarda respublikada yashayotgan boshqa millat vakillari qatorida koreys millati tarixiga qisman bo'lsada ye'tibor qaratib o'tilgan.

Ma'lumki, keyingi yillarda koreys millati vakillarining O'zbekiston hududlarida yashab kelayotganligini 1937 yildan yildan hisobga olinadi. Ammo, 1926 yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish bo'yicha keltirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat Arxivida saqlanayotgan manbada 1926 yilda O'zbekistonda 30 ta koreys millati vakillari yashaganligi to'g'risidagi ma'lumotlar saqlangan. Ma'lumotni o'rganish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki koreys millati vakillarining 29 nafarini yeraklar 1 nafari xotin-qizlar tashkil yetgan[1].

1939 yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish natijalarida yesa O'zbekiston hududida jami 73494 nafar koreys millati vakillari ro'yxatga olinib ulardan yeraklarning 6577 nafari shaharlarda, 32394 nafari qishloq hududlarida yashayotganligi qayd qilingan. Ayollarning 4863 nafari shaharlarda, 29660 nafari qiloq hududlarida iste'qomat qilganlar. Aholi sonini bu qadar oshib ketishiga sabab sovetlar davrida markazning toshirig'iga asosan uzoq sharqdan ushbu millat vakillarining O'zbekistonga ko'chirib kelish to'g'risidagi qarori bo'ldi. Shu qaror ijrosini bajarish bo'yicha O'zbekiston SSR XKK va O'zbekiston Kompartiyasi MQ sining 1937 yil 25 noyabrdagi "Koreyslarni O'zbekiston SSRga ko'chirish rejasining bajarilishi to'g'risida"gi 1813/278-son qo'shma qarori qabul qilindi unda qayd yetilishicha, 1937 yil 10 noyabrga qadar sobiq SSSRning Uzoq Sharq o'lkasidan 74500 kishidan iborat 16307 koreys oilasi ko'chirib keltirilgan yedi[2].

Ko'chirib keltirilganlar taqdiri masalasi sobiq Xalq komissarlari kengashining 1938 yi 5 yanvarda o'tkazilgan kengashida muhokama qilinadi. Kengashda ta'kidlanishicha ko'chirib keltirilgan oila vakillarining 9807 tasi O'rta Chirchiq tumanidagi sholi yetishtiruvchi xo'jalikka, Pastdarg'om tumanidagi paxta yetishtirishga ixtisoslashgan "Strelkova" nomli xo'jalikka hamda Qo'yi Chirchiq tumanidagi "Besh yillik" deb nomlangan paxta yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklarga joylashtiriladi. Yana 700 oila yesa Qoraqalpog'iston ASSR hududiga asosan baliq yetishtiruvchi xo'jaliklarga joylashtiriladi.

Manbalarning guvohlik berishicha ko'chirilib kelish jarayonida yoshlar, qariyalar va yosh bolalardan iborat bo'lgan millat vakillari og'ir qiyinchiliklar girdobiga solinadi. O'zbekistonga ko'chirib kelinganlarning asosiy qismi Toshkent viloyati xududiga joylashtiriladi. Ma'lumotdan ko'rinib turibdiki 1937 yilda 74500 nafar odamlar O'zbekistonga joylashtirilgan bo'lsa oradan ikki yil o'tib O'tkazilgan aholini ro'yxatga olish natijalarida yesa umumiy millat vakillari soni 1006 kishiga kamayganini ko'rishimiz mumkin.

1940 yil mart oyida o'tkazilgan SSSR Xalq Komissarlari kengashining № 5 son qarorida koreyslarni O'zbekiston hududiga joylashtirish ishlari tugallanganligi va bo' ishlarga davlat tomonidan 4 mln 400 ming rubl sarflanganligi aytilib ana shu summani 215 ming rubli ko'chirib keltirish ishlariga qolgan 4 mln 185 ming rubli yesa uy joy qurilish ishlariga sarf qilinganligi ye'tirof qilinadi.

Rossiya federasiyasi davlat arxivida saqlanayotgan ma'lumotga ko'ra sobiq SSSR ichki ishlar vaziri general palkovnik S.Kruglov tomonidan 1946 yil 2 avgustda chiqarilgan qarorga ko'ra O'zoq Sharqdan ko'chirilgan aholi ko'chirilib borilgan joylarda muqim yashab qolishi va ularga o'z ona yurtlariga qaytib kelish imkoniyati berilmasligini ham ularga pasport faqat yashab turgan joyida ro'yxatda turganligi uchun berilganligi haqida berilganligini qayd yetadi[3].

Azaldan fidokorona mehnat qilishga, yaratuvchanlik g'oyalari asosida tarbiyalangan millat aholisi tez orada bizning mintaqamizga moslashib ketadi.

O'zbekistonda koreys millati vakillarining soni o'sishi darajasi keyingi yillarda yuqori darajada o'sganligini kuzatishimiz mumkin. Masalan 1959 yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish natijalarida respublikada 138453 nafar, 1970 yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish natijalarida yesa 147538 nafar koreyslar yashayotganligi ro'yxatga olingan. Agarda ushbu ko'rsatkichni 1939 yil natijalari bilan solishtirib ko'radigan bo'lsak 1970 yilga kelib aholi soni 1939 yildagiga nisbatan ikki barobardan ortiqroq darajada ko'payganligini ko'rishimiz mumkin.

1959 yilgi aholi ro'yxati natijalari bilan 1970 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxatini taqqoslab ko'rganimizda Toshkent shahrida yashayotgan koreys millatiga mansub aholi soni 1959 yilda shahar umumiy aholisi tarkibida 0,4 foizni, 1970 yilgi ro'yxatda yesa 1,3 foizini tashkil yetganligini ko'rishimiz mumkin[4]. Ma'lumki sovet davlati hukmronligi yillarida shaharlarda millatlar sonining ortishi turli millat vakillari o'rtasida yetnik jihatdan aralash oilalarni ko'payishiga olib keldi. Buni quyidagi jadvalda ham ko'rishimiz mumkin. (Koreys millati vakillari misolida)

1970 yilgi aholi ro'yxatiga ko'ra Toshkent shahri bo'yicha yetnik jihatdan aralash oilalar soni[5]

Etnik aralash oilalar	Oilalar soni	Oilalar soniga nisbatan foiz hisobida
O'zbek va koreyslar	16	0,01
Rus va koreyslar	256	0,09
Tatar va koreyslar	49	0,02
Qozoqlar va koreyslar	5	-
Koreys va boshqa millatlar	28	0,03

Jadvaldan ko'rinib turibdiki boshqa millat vakillari bilan nikohdan o'tish darajasida ruslar bilan ancha yuqori bo'lgan.

Keyingi yillarda ham ushbu millat vakillarining soni ancha ortganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, 1979 yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish yakunlari bo'yicha keltirilgan ma'lumotda respublikada koreys millatiga mansub aholi soni 163062 kishi deb ro'yxatga olinadi. 1989 yilda yesa bo' ko'rsatkich 183140 nafarga yetadi. Ma'lumotdan ko'rinib turibdiki o'tgan 10 yil mobaynida ushbu millat vakillarining son jihatdan o'sish darajasi yigirma ming kishidan ortiqni tashkil qilgan[6]. Ta'kidlash lozimki, turli davrlardagi muayyan jamiyatda istiqomat qiluvchi har bir millatning ravnaqi, ijtimoiy holati, ma'naviy qiyofasi o'sha jamiyatning moddiy, ijtimoiy, tarixiy-madaniy sharoitlariga qarab o'zgarib boradi. Millatning ruhiy-ma'naviy qiyofasi o'sha mavjud muhit va mafkuradagi ijtimoiy ong shakllarida o'z ifodasini topadi. Sovet davridagi "hukmron mafkura"ning juda katta ta'siri O'zbekistondagi milliy va ijtimoiy tarkibini tubdan o'zgartirib, millatning ruhiy-ma'naviy qiyofasiga o'zining salbiy tomonlarini namoyon yetdi. Undan tashqari sovet hukumati hokimiyatga kelgan dastlabki yillardan boshlab ko'plab xalqlar va millatlarga tinchlik "va'da" berib, zo'r berib "sosialistik millat"ni shakllantirish siyosatini olib borgan bo'lsa-da, amalda sovet davlati boshqaruvi yagona "kommunistik mafkura"ga bo'ysundirilib, millatchilik shovinizmi avj oldirildi. Bu jarayon Ittifoq tarkibidagi xalqlar, jumladan, koreys xalqi milliy o'zligini anglash jarayoniga salbiy ta'sir o'tkazdi. Bu holatni sovet davrida O'zbekiston aholisining milliy va ijtimoiy tarkibidagi o'zgarishlar misolida tadqiq yetish ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Biz

o'rganayotgan mavzuda ham aynan shu masala ustida mushohada yuritildi. O'rganishlar jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, sovetlar davrida aholini zo'r berib yurtimizga ko'chirtirib kelinishi ko'pchilik millat vakillari uchun imkoniyatlar yeshigini yopib qo'ydi.

Biz ushbu maqolada koreys millati vakillarining sovetlar davridagi tarixini oz bo'lsada yoritib berishga harakat qildik. Hozirda O'zbekiston va Janubiy Koreyani juda katta masofa ajratib turadi. Ammo, shunga qaramasdan bu ikki xalqni mustahkam do'stlik rishtalari, xalqlarimizning tarixiy va ma'naviy yaqinligi bog'lab turadi. O'zbekiston mustaqillikka yerishgandan so'ng Janubiy Koreya davlati bilan aloqalarni mustahkamlashga katta ye'tibor qaratdi sababi, Janubiy Koreya nafaqat asiyoda balki jahon miqyosidagi yeng rivojlangan mamlakatlardan biri hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi sanoat iqtisodiyotida yetakchi o'rinni yegallaydi. Koreya Respublikasi sanoatida kemalar, yengil avtomobillar, yelektronika va yeletrotexnika, neft, po'lat, to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha o'ziga xos tajriba to'plangan. Bundan tashqari rangli metallurgiya, kimyo, yengil sanoat korxonalarini mavjud. Bugungi kunda O'zbekiston tomoni janubiy Koreya bilan hamkorlik o'rnatilganidan manfaatdor sababi, yurtimizning iqtidorli yoshlari Koreyaga borib ishlab, o'qib hamda malakalarini oshirib kelmoqdalar bu yesa yoshlarimizni u yerdagi ilm-fan, texnika taraqqiyoti sir -asrorlarini o'rganib malakali kadrlar bo'lib yetishishiga va o'rgangan tajribalarini mamlakatimiz taraqqiyoti va rivojlanishiga qo'shishiga sabab bo'lmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. ЎзР МДА Р 1619 фонд. 11- рўйхат, 53 йиғма жилд, 8-9 бетлар
2. ЎзР МДА, 837-Фонд, 27-рўйхат, 39-иш, 11-варак.
3. РФДА Ф. Р-9401 207 йиғма жилд
4. ЎзР МДА, Р1619 фонд,5 рўйхат, 29 иш, 6-7 вараклар.
5. Мулладжанов И.Р., Вороновский Ю.В., Цепковская Т.С. Население Узбекиской ССР. – Т.: Узбекистан, 1973. – С. 43.
6. ЎзР МДА, Р1619 фонд,5 рўйхат, 297 иш, 1 варак.



UO‘K:930.25(584.4)

*Sherzodjon CHORIYEV,*  
*O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti*  
*E-mail: sherzodch@rambler.ru*

*Tarix fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD) A.Xudoyorov taqrizi asosida*

### O‘ZBEKISTON SSRDA SANOATNI INDUSTRIALIZATSIYA TARIXIGA DOIR MILLIY ARXIV FONDHLARI TAHLILI (1924-1941 YILLAR)

Аннотация

Ushbu maqolada O‘zbekiston SSRda sanoat sohasida faoliyat olib borgan komissarlik, vakolatxona, trest va boshqa ayrim tashkilotlarning O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan fondlarining manbaviy xususiyatlariga tavsif berilgan. Shuningdek, sanoat sohasi tarixini yoritish muhim bo‘lgan tarixiy manbalar boshqa turlari haqida ham ma‘lumot berib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘zbekiston Milliy arxivi, O‘zbekiston SSR, sanoat, fond, hujjat, trest, vakolatxona, sovet hokmiyati

### АНАЛИЗ ФОНДОВ НАЦИОНАЛЬНОГО АРХИВА ПО ИСТОРИИ ИНДУСТРИАЛИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНСКОЙ ССР (1924-1941 ГГ)

Аннотация

В данной статье описана источниковая характеристика фондов наркоматов, представительств, треста и некоторых других организаций, действовавших в сфере промышленности Узбекской ССР, хранящихся в Национальном архиве Узбекистана. Приводятся также сведения о других видах исторических источников, важных для освещения истории отрасли.

**Ключевые слова:** Национальный архив Узбекистана, Узбекская ССР, промышленность, фонд, документ, трест, представительство, советское правительство.

### ANALYSIS OF THE FONDS OF THE NATIONAL ARCHIVE ON THE HISTORY OF INDUSTRIALIZATION IN THE UZBEKISTAN SSR (1924-1941)

Annotation

This article describes the source characteristics of the funds of the commissariat, representative office, trust and some other organizations that operated in the field of industry in the Uzbek SSR, which are kept in the National Archives of Uzbekistan. Information is also given on other types of historical sources that are important for illuminating the history of the industry.

**Key words:** National Archives of Uzbekistan, Uzbekistan SSR, industry, fund, document, trust, representative office, Soviet government.

**Kirish.** O‘zbekiston sanoati ham o‘z taraqqiyoti jarayonida bir qator bosqichlarni bosib o‘tgan. Eng avvalo, uy sanoati, so‘ngra, hunarmandchilik, ya‘ni xonaki sanoat, kooperatsiya, manufaktura, fabrika kabi shakllari yuzaga kelgan. O‘zbekiston sanoati tarixi bir necha ming yillarga borib taqalib, qadimdan o‘lkamizda hunarmandchilikning juda ko‘p turlari keng tarqalgan.

Ma‘lumki, sanoat sohasi mamlakat iqtisodiyotining bosh bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, davlat iqtisodiyotini rivojlantirish, aholini ish bilan ta‘minlash, ichki tovar maxslotlari bilan ta‘minlash, eksport va boshqa qator iqtisodiy muammolarning yechimi ham aynan sanoat sohasining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. XX asr boshlarida ishlab chiqarishning ko‘plab turlari bo‘lgan. 1925 yilning oxirida SSSRda mamlakatni industrializatsiya ishlariga alohida e‘tibor qaratadi.

Industrializatsiya siyosatiga 1917 yilda V.I.Lenin tomonidan boshlangan GOELRO (Gosudarstvennaya komissiya po elektrifikatsii Rossii) siyosati asos qilib olindi [1].

Ammo industrializatsiya siyosati juda katta kapital mablag‘larni talab etganligi sababli, kapitalistik mamlakatlarga qaram bo‘lishni istamagan davlat o‘ziga kerakli mashina va texnikalarni o‘zi ishlab chiqarib, asosiy urg‘uni yengil sanoatga emas balki og‘ir sanoat sohasiga qaratgan [2].

SSSRda sanoatni industrializatsiya siyosatini olib borishda tashqi mablag‘larni jalb etmasdan, mamlakat budjetini tejash hisobiga amalga oshirildi. Mamlakat iqtisodiy harajatlarini qisqartirishni ikki bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda 1926 yilda korxonalar va tashkilotlarda shtatlarni qisqartirish, tashkilotlarga keraksiz asbob uskunalar va materiallarni sotib olish qisqartirildi. Ammo ushbu chora tadbirlar ishlab chiqarish sohasini moliyalashtirishga o‘z ta‘sirini ko‘rsatmadi. Ikkinchi bosqichda shu yilning dekabr oyida o‘tkazilgan XV Butunittifoq partiya konferensiyasida ishlab chiqarish sohasini batamom texnik jihozlash ishlarini takomillashtirish haqida qaror qabul qilgan.

Industrializatsiya siyosatini olib borilishi nafaqat SSSRda balki, O‘zbekistonda ham sanoat sohasida katta kadrlar yetishmovchiligini keltirib chiqardi. Har bir sanoat sohasida elektrik-monter, slesar, temirchi, mexanik-temirchi, tokar, frezerovshik, payvandchi kabi ko‘plab ish o‘rinlari va mutaxassislik shtatlari bo‘sh edi. Natijada, ishsizlik ortib bordi, agrar sohaga ixtisoslashgan qishloq aholisi ham ushbu kasblar egasi bo‘lmagani uchun shaharga ish izlab kelishi ancha pasayib ketdi. Kadrlar tayyorlash maqsadida texnikum, oliy ta‘lim institutlari tashkil etilgan bo‘lsa-da, bitiruvchilar ham zavod fabrikalardagi yangi texnikalarni ishlatishda bir qator qiyinchiliklarga duch kelishdi [3]. 1930 yildan Kadrlarni tayyorlashda FZU (fabrika-zavodlarga ishchilar tayyorlash texnikumi) maktablari tashkil etildi. Ammo toshko‘mir sanoatida kadrlar yetishmovchiligi juda tanqis edi. SSSR

bo'yicha 1930 yilning aprel-sentabr oylarida ko'plab ishchilarning qishloq xo'jaligi sohasiga o'tib ketishi natijasida ishchilar soni 70 mingga kamayib ketdi, bu ko'rsatkich mamlakat toshko'mir sanoatidagi ishchilarining 3/1 qismini tashkil etgan.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'zbekiston SSRning sanoat tarixiga oid ko'plab tarixiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. O'zbekiston SSR dastlab tashkil etilgach, sovet hokimiyati respublikani sanoatlashtirish va undagi tabiiy boyliklarni o'zlashtirish ishlariga alohida urg'u bergan. O'zbekistonning sanoat tarixi ko'pgina tarixchilar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ushbu masala bo'yicha dissertatsiya darajasida tarixshunoslik tadqiqotini amalga oshirish mumkin. Mavzuga oid ilmiy ishlarni davriy jihatdan sovet va mustaqillik yillari tadqiqotlariga bo'lish mumkin.

Sovet davrida Respublikani sanoatlashtirish tarixiga oid izlanishlar R.Y.Dosumov [4], Sh.O'lmasbayev, S. Slivalar tomonidan amalga oshirilgan [5]. Mustaqillik yillarida respublikamiz tarixchilari N.Oblomurodov, F.Tolipov [6], I.M.Haydarov [7], X. B. Babadjanovlar [8] tomonidan o'rganilgan. Ammo ta'kidlash joizki, O'zbekiston sanoat tarixiga oid ma'lumot beruvchi arxiv fondlarining manbaviy ahamiyatini ochib berishga bag'ishlangan tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tarixiy manbashunoslik sohasida ilmiy izlanishlar olib borishda tarixiy tadqiqot usullari muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Milliy arxivida O'zbekistonda sanoat tarixiga oid muhim hujjatlari turli tashkilotlarning fondlarida saqlanib kelmoqda. Fondlarda saqlangan hujjatlardagi ma'lumotlar jadval, statistik, diagramma, hisobot, ma'ruza ko'rinishlarida saqlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi sanoat sohasiga oid fondlarni tahlil etish bo'lganligi sababli, arxivda saqlanyotgan sohaga doir fondlar tashqi tahlil uslubida tahlil etilgan.

Sanoat sohasini industrilashtirish tarixiga oid arxiv manbalari tavsifi

Sovet hokimiyatining O'zbekiston SSR sanoat sohasini industrilashtirish siyosatiga oid ko'plab tarixiy hujjalar bugungi kunda O'zbekiston Milliy arxivida saqlanadi.

O'zbekistonda sanoat tarixiga oid ma'lumotlar mavjud fondlar soni talaygina bo'lib, shu sababli ularni turkumlashtirib tavsiflash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Jumladan, birinchi guruh hujjatlar, bu aynan sanoat tashkilotlariga tegishli arxiv fondlari hisoblanadi. Ikkinchi guruh hujjatlar Markaziy boshqaruv organlariga tegishli fondlarda jamlanib, shu tashkilotlarning faoliyati bilan bog'liq. Ushbu fondlarni mazmuniga ko'ra, respublikani industrilashtirish jarayonlari hamda sanoat ishlab chiqarish jarayonlarini yorituvchi ma'lumotlarga ega fondlarga ajratish mumkin. Sanoat sohasiga oid arxiv fondlarini sohalari ko'ra ham tasniflash lozim. Jumladan, bugungi kunda O'zbekiston Milliy arxivida 20 dan ortiq sanoat sohasi va uni industrilashtirish haqida ma'lumotlarni jamlagan fondlar saqlangan.

O'z navbatida arxivda mamlakat xalq xo'jaligining muhim tarmog'i hisoblangan sanoat sohasida faoliyat olib borgan bir qancha tashkilot va korxonalarining arxiv fondlari saqlangan bo'lib, ulardagi hujjatlar respublika iqtisodiy tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur fondlarni quyidagicha tasniflash maqsadga muvofiq:

1. Og'ir sanoat
2. Yengil sanoat
3. Oziq-ovqat sanoati
4. Ilmiy muassasalar

O'zbekiston SSR tashkilot organlari orasida qisqa muddatli faoliyat olib borgan tashkilotlar ham bir nechtni tashkil etadi. 1932 yilda tashkil etilib, 1936 yilda faoliyati tugatilgan O'zbekiston SSR XKS qoshidagi SSSR Og'ir sanoat

komissarligi vakolatli boshqarmasi fondi (R-83) ro'yaxlarida 456 ta yig'majild saqlanib qolgan [10].

Respublikada toshko'mir, tuproq, g'isht, ohak, alebastr ishlab chiqarish, qazib olish va sotish vazifalarini bajargan va 1925 yil 1 oktabrda tashkil etilgan O'zbek-qirg'iz toshko'mir qo'shma sanoati "O'rta Osiyo toshko'mir" (Ferugol ham deyilgan) tresti hujjatlari arxivning R-103 fondida saqlanib, unda 2693 ta yig'majild jamlangan [11].

Fond tarkibida "Farg'onako'mir" trestini "O'rta Osiyo toshko'mir" ("Sredazugol") tresti sifatida qayta tashkil etish to'g'risidagi qarori (1927), "Sredazugol" trestining ustavi (1927) kabi muhim hujjatlar mavjud.

Shuningdek, fondda ko'mir qazib olish va sotish bo'yicha ishlab chiqarish dasturlari va besh yillik rejalarini tayyorlash to'g'risida SSSR Xalq xo'jaligi Oliy Kengashi va Mehnat va Mudofaa Kengashi va "Sredazugol" tresti boshqaruvi bo'yicha qarorlari, farmoyishlari va sirkulyarlari mavjud.

Respublikada tabiiy boyliklarni qidirib topishda geologiya razvedka ishlari muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu maqsadda 1940 yil 23 mayda O'rta Osiyo davlat geologiya razvedka tresti tashkil etilib, 1957 yil 5 iyuldagi SSSR XKS va O'zbekiston SSR geologiya va tabiiy boyliklarni himoya qilish bosh boshqarmasining buyrug'iga ko'ra trest faoliyati tugatilgan.

SSSR ko'mir sanoat Ministrligi Bosh geologiya boshqarmasining O'rta Osiyo Davlat tresti R-2117 fondida ham ko'mir sanoati tarixiga oid jami 2882 ta hujjatlar saqlangan. Mazkur fondga geologiya-qidiruv va geofizika ishlarining yillik rejaları va titul varaqalari, ko'mir konlarida geologiya-qidiruv, gidrogeologik va topografik-geodeziya ishlari loyihalari, trestning burg'ulash va geologiya-qidiruv ishlariga tegishli tarixiy hujjatlar saqlanib kelmoqda.

O'zbekistonda yengil sanoat tarixiga tegishli muhim hujjatlar SSSR yengil sanoat Xalq Komissarligining O'zbekiston SSR XKS qoshidagi vakolatli boshqarmasi (R-84) fondida 364 ta yig'majild saqlangan [12]. Trest 1934 – 1936 yillar o'z faoliyatini olib borgan.

Fond tarkibida SSSR va O'zbekiston SSR MIQ va XKS, SSSR Mehnat va Mudofaa Soveti hamda Yengil sanoat xalq komissarligining O'zbekistonda yengil sanoatni yanada rivojlantirish to'g'risidagi farmon va sirkulyarlari; "O'zbekipaksanoat" trestida kapital qurilish rejasi (1935)lari. Farg'ona to'qimachilik fabrikasida to'qimachilik va yigiruv ishlab chiqarish, mehnat va reja ko'rsatkichlarining bajarilishi bo'yicha sharhlar (1935); "O'zbekipaksanoat" trestining ko'rsatkichlari (1935 – 1936 yillar) to'g'risidagi hisobot va memorandumlari, Butunittifoq jun maxsulotlarini qayta ishlash birlashmasining O'zbekiston SSRdagi idorasi (1935)ning hisobotlari (1936), Stalin nomidagi Toshkent tekstil kombinati faoliyati va rejaları, O'zbekiston viloyatlarida jun sotib olish (1935) haqidagi hujjatlar saqlanmoqda.

Respublika iqtisodiyotida og'ir sanoat ham o'ziga xos o'rin tutgan bo'lib, ushbu soha turli vakolatxonaga va organlar orqali markazdan turib nazorat qilingan. Shunday nazoart organlaridan biri bo'lgan, SSSR Og'ir sanoat xalq komissarligining O'rta Osiyodagi vakolatxonasinining hujjatlari R-2-fondida saqlangan. Tashkilotning 1934-1936 yillarda faoliyat olib borgan bo'lib, uning 195 ta yig'majildi mavjud.

Ta'kidlab o'tish joizki, Respublikamizda sanoat tarixiga tarixiy ma'lumotlarni o'zida saqlab kelayotgan 20 dan ortiq arxiv fondlari mavjud va ularni barchasi tavsif berish imkoniyati cheklangan.

Shuningdek, O'zbekiston Milliy arxivida 1924-1941 yillardagi O'zbekiston SSR sanoat sohasiga oid yirik fondlar bilan bir qatorda sohaga qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etuvchi arxiv hujjatlari ham uchraydi. Masalan,

F.Xo'jayevning ma'ruzalari, viloyat davlat arxivlarida saqlanayotgan besh yillik rejalar va ularning bajarilishiga oid hisobot (komissarliklar, viloyat va tuman ijroqo'mlar hisobotlari, yillik hisobotlar)lar, syezd va konferensiya materiallari, statistik to'plamlar kabi manbalarni misol qilib keltirish mumkin.

Shuningdek, ayrim mutasaddi organ (komissarliklar, Iqtisodiy kengashlar)larning davriy nashrlarida mavzuga oid muhim ma'lumotlar jamlangan. Biroq, ushbu nashrlar tashkilotlarning ichki ish yuritish tizimlarida foydalanish uchun nashr etilgan va ularning aksariyati tashkilot arxiv fondlarida va kutubxonalarida saqlanib qolgan. Shu jumladan, O'zbekiston Milliy arxivining kutubxonasida ham ushbu sohaga oid qator statistik to'plamlar va komissarliklarning nashrlari saqlanib qolgan.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Sovet hokimiyatining O'zbekiston SSR sanoat sohasini industrlashtirish siyosati tarixiga oid 20 dan ortiq arxiv fondlari saqlangan. Industrlashtirish siyosati juda katta kapital mablag'larni talab etganligi sababli, kapitalistik mamlakatlarga qaram bo'lishni istamagan davlat o'ziga kerakli mashina va texnikalarni o'zi

ishlab chiqarib, asosiy urg'uni yengil sanoatiga emas balki og'ir sanoat sohasiga qaratgan.

Arxivda saqlangan tarixiy iqtisodiy hujjatlar asosida respublika va SSSR miqqiyosida faoliyat olib borgan sanoat korxonalarining daromadlari haqidagi ma'lumotlar to'liq aks etgan. Ikinchi besh yillikda sanoat korxonalarining shu jumladan SSSR miqqiyosidagi korxonalar daromadi ham keskin oshgan. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar natijasida SSSR budjetini to'ldirishda respublikaning hissasi qanday bo'lgan?, ittifoqdosh respublikalar ichida birgina sanoat sohasidan qancha daromad ko'rgan? Kabi savollarga javob topish imkonini beradi.

Sanoat sohasi Xalq Komissarlari soveti, O'rta Osiyo Iqtisodiy kengashi, O'zbekiston SSR Xalq xo'jaligi oliy kengashi (VSNX O'zSSR), SSSR Og'ir sanoat xalq komissarligining O'rta Osiyodagi vakolatxonasi (1932 – 1934), SSSR Og'ir sanoat xalq komissarligining O'zbekiston SSR Xalq komissarlari soveti huzuridagi vakolatxonasi (1932 – 1936), SSSR Yengil sanoat xalq komissarligining O'zbekiston SSR Xalq komissarlari soveti huzuridagi vakolatli boshqarmasi (1934 – 1936) kabi tashkilotlar tomonidan nazorat qilingan.

#### ADABIYOTLAR

1. История индустриализации СССР 1926-1941 (Документы и материалы). – М.: Издательство «Наука», 1969. – С. 5
2. Развития советской экономики. – Москва: Государственное социально-экономическое издательств, 1940. –С.245
3. История индустриализации СССР 1926-1941 (Документы и материалы). –М.: Издательство «Наука», 1969. –С. 350-365
4. Промышленность Узбекистана./спец. ред. к.э. н., Р.Я.Досумов. Ташкент: Узбекистан, 1974. –С.68
5. Ульмасбаев Ш.,Слива С. Индустриальное развитие Узбекистана за годы советской власти. –Ташкент: Узбекистан, 1966. –С. 104
6. Обломуродов Н., Толипов Ф. Узбекистонда соликлар гарихи. - Т.: «IQTISOD-MOLIYA». 2009. - 180 б.
7. Хайдаров, И.М. Ўзбекистон халқ хўжалигида энгил ва озик-овқат саноатининг ўрни (1950-1970 йиллар) // ORIENSS. 2022. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekiston-hal-h-zhaligida-engil-va-oz-ov-at-sanoatining-rni-1950-1970-yillar> (дата обращения: 29.11.2023).
8. Бабаджанов Х. Б. Военная индустриализация Узбекистана в 1941-1945 годах//Научный диалог. 2022. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/voennaya-industrializatsiya-uzbekistana-v-1941-1945-godah> (дата обращения: 29.11.2023).
9. ЎзМА, 837-фонд, 10-рўйхат, 1-йиғмажилд, 28-варак
10. ЎзМА, 83-фонд, 1-рўйхат, 273-йиғмажилд, 1-варак
11. ЎзМА, Р-103-фонд, 1, 2, 3, 4 – рўйхатлар тахлили
12. ЎзМА, Р-84-фонд, 1- рўйхат тахлили



*Sanjarbek SHOYIMOV,*  
*Toshkent moliya instituti o‘qituvchisi*  
*E-mail: sanjarbekshoyimov@gmail.com*

*Soliq Qo‘mitasi huzuridagi Fiskal instituti professori, tarix fanlari doktori F.Tolipov taqrizi asosida*

## SOVET-AFG‘ON URUSHI VUJUDGA KELISHINING SABAB VA SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya

Sovet-afg‘on urushi va uning boshlanish sabab va oqibatlari bugungi kungacha ham dolzarbligicha qolmoqda. Ushbu maqolada Afg‘onistonda o‘tgan asrning 70-yillaridagi siyosiy vaziyatning keskinlashuvi, hukumat almashinuvi, Sovet Ittifoqining Afg‘onistonga bostirib kirishi va keyinchalik ADR (Afg‘oniston Demokratik Respublikasi) hukumati tomonidan bu harakatning “olqishlashi” manbalar asosida ochildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** Sovuq urush, AXDP, N.M.Taraqqi, Savr inqilobi, “Parcham” gazetasi, Musulmon batalyoni, Tojibek saroyi, Alfa gruppasi, Babrak Karmal.

## THE CAUSES AND CONDITIONS OF THE SOVIET-AFGHAN WAR

Annotation

The Soviet-Afghan war and its causes and consequences remain relevant to this day. In this article, the aggravation of the political situation in Afghanistan in the 70s of the last century, the change of government, the Soviet invasion of the country and the subsequent “applauding” of this action by the ADR government are revealed based on the sources.

**Key words:** Cold War, AKP, N.M. Taraqqi, Savur Revolution, "Parcham" newspaper, Muslim Battalion, Tajibek Palace, Alfa Group, Babrak Karmal.

## ПРИЧИНЫ И УСЛОВИЯ СОВЕТСКО-АФГАНСКОЙ ВОЙНЫ

Аннотация

Советско-афганская война, ее причины и последствия сохраняют свою актуальность и по сей день. В данной статье на основе источников раскрываются обострение политической ситуации в Афганистане в 70-х годах прошлого века, смена правительства, советское вторжение в страну и последующее «аплодисменты» этому действию со стороны правительства АДР.

**Ключевые слова:** Холодная война, ПСР, Н.М. Таракки, Саурская революция, газета «Парчам», Мусульманский батальон, Таджикский дворец, Альфа-групп, Бабрар Кармал.

**Kirish.** Sovuq urushdagi eng katta tarixiy xodisalardan biri Sovet harbiy kuchlarining Afg‘oniston tuprog‘iga kiritilishi XX asrning 70-yillaridagi olamshumul voqea bo‘ldi. Ma‘lumki, XX asrning 60-70 yillarida jahonda yuz bergan siyosiy voqealarida SSSR hamda AQShning bevosita ishtirokining mavjudligi, sovuq urush davrida rivojlanayotgan davlatlarning aynan shu ikki davlat aralashuvining ta‘sir ostida sotsialistik yoki demokratik tuzumni o‘ziga g‘oyaviy rahnamo qilib olish odatga aylangan edi. Ushbu jarayonlardan chetda qolmagan SSSRning qo‘shnisi bo‘lgan Afg‘onistonda ham aynan shu davrda hokimiyat uchun kurashlar keskin avj olgan pallaga kirgan edi. Shu sababli bu ikki buyuk davlatning Afg‘onistondagi o‘zgarishlarga o‘z ta‘sirini o‘tkazishga harakat qilishlari asnosida SSSR hukumatining Afg‘onistonda davlat to‘ntarishi tayyorlashdagi ishtiroki hamda u yerga bostirib kirishining sabab va shart-sharoitlari, uning bu bosqinchilik harakatini SSSR ning Afg‘onistonga “baynalmilalchilik harakati” deb izohlashi bahona bo‘ldi.

Bu hodisadan ancha oldinroq, 1965 yilning yanvarida Afg‘oniston Xalq Demokratik Partiyasi (AXDP) ning ta‘sis syezdi bo‘lib, unda firqaning rahbar organlari saylandi. Xususan, Nur Muhammad Taraqqiy Bosh sekretar etib tasdiqlandi. “Xalq” nomli ro‘znomasida AXDPning dasturi, murod-maqсадlari bayon etilib, o‘z g‘oyalarini keng xalq ommasiga yetkazishda targ‘ibot ishlarini amalga oshira boshladi. Ammo tez orada partiya orasida o‘zaro kelishmovchilik kelib chiqadi. Uni Babrak Karmal va uning tarafdorlari boshladi. 1967 yilga kelib, partiya ikkiga

bo‘linib ketdi. Ajralganlar o‘z ro‘znomalari “Parcham” (bayroq) ni chiqara boshladi. Kelishmovchiliklarga qaramay, ikkala tarmog‘i siyosiy hokimiyatni qo‘lga olish uchun o‘z ijtimoiy-iqtisodiy g‘oyalarini targ‘ib etishdagi faolliklarini susaytirmadi.

1977 yilga kelib, mamlakatda inqilobiy vaziyat yuzaga kelganligi bois ikkala tarmoq yana yagona AXDPga birlashdi. 1978 yil 27-28 aprelda (1357-yil 7-Savr musulmon yillari) Afg‘onistonda aprel inqilobi bo‘lib o‘tdi, natijada podpolkovnik Abdul Qodir boshchiligidagi bir guruh harbiylar Prezident Dovudni ag‘darib, hokimiyatni Inqilobiy Kengashga topshirdi. Shu yilning 29 aprel kuni mahalliy radioda hokimiyat almashinuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya ikki tilda: dari va pashtu tillarida o‘qildi. Nur Muhammad Taraqqiy yangi bosh vazir bo‘ldi va mamlakat “demokratik respublika” deb e‘lon qilindi. Qizil bayroq yangi davlatning bayrog‘iga aylandi. 1978 yil 30 aprelda yangi respublikani dunyoning aksariyat davlatlari, jumladan SSSR va sotsialistik davlatlar, AQSh, Buyuk Britaniya, Pokiston tan oldi. Davlatdagi ikkinchi lavozim Xafizullo Aminga nasib etdi. Taraqqiy Aminga nihoyatda ishonar, ichki va tashqi siyosatni olib borishda maslahatlashar, mamlakat iqtisodiy qudratini ko‘tarishda yuritilajak islohotlarni uning zimmasiga yuklab quygandi. Ammo, Amin mamlakat siyosiy maydonida ikkinchi bo‘lishni xohlamas, hukumat rahbarligini qo‘lga olish uchun zimdan tayyorgarlik ko‘ra boshladi. N.M. Taraqqiy SSSR bilan, Hafizullo Amin esa AQSh bilan yaqin aloqalar o‘rnatish tarafdori edi. Amin hukumat rahbarlaridan biri sifatida “XAD”(Afg‘oniston Mudofaa Vazirligi), “Sarandoy”

ministrlaridagi maslakdoshlari bilan til birlashtirgan holda Taraqqiyga faqat o'zlariga ma'qul bo'lgan axborotlariga berardi[1].

N.M.Taraqqiy hayotligida o'tkazilgan so'nggi plenumda uni qo'llab-quvvatlovchi kuchlar Aminga ochiqdan-ochiq qarshi chiqdi. Plenumdan keyin Amin davlat rahbari N.M.Taraqqiy zudlik bilan lavozimidan chetlatmasa, sir oshkor bo'layotgani va buning oqibati xunuk bo'lishidan o'ta bezovtalanib qoldi. Shu yili Taraqqiy tomonidan Aminga suiqasd uyushtirildi, ammo, baxtli tasodif tufayliga tirik qoldi. Uning josusi, Inqilobiy Kengash raisining shaxsiy qo'riqchisi Tarun otishma vaqtda halok bo'ldi. Natijada Amin Taraqqiyning o'ldirish uchun hozirlana boshladi. Tarakiy hukmronligi Amin o'stirgan shaxsga sig'inish bilan ajralib turardi. Davlat matbuoti va undan keyingi targ'ibotda uni "Buyuk yo'l boshchi", "Buyuk ustoz" deb atash boshlandi va uning portreti butun mamlakat bo'ylab keng tarqalgan ko'rinishga aylandi. Uning Amin bilan munosabatlari uning hukmronligi davrida yomonlashdi, natijada 1979 yil 14 sentyabrda N.M.Taraqqiy taxtdan ag'darildi va 8 oktabrda Aminning buyrug'iga ko'ra o'ldirildi, Qobul matbuoti uning kasallikdan vafot etgani haqida xabar berdi. Uning o'limi 1979 yil dekabrda Sovet intervensiyasiga sabab bo'lgan omil bo'ldi[2].

Hafizulloh Amin hukumatni qo'lga olar ekan, SSSR rahbariyati bilan do'stona aloqada bo'lishini bildiradi. 1979 yil sentabr oyidan dekabr oyigacha Amin SSSR hukumatidan bir necha bor harbiy yordam so'ragan. Ikkinchi tarafdan, u AQSh bilan hamkorlik qilish haqida yashirincha muzokara o'tkaza boshlagan.

Aprel to'ntarishi va uning oqibatlarini bu davrga kelib qurolli muxolifat kurashini kuchaytirdi. Ular Amin hukumatini qiyin ahvolga solib qo'ydi. Hukumat qo'shinlari nazorati ixtiyorida faqat Qobul va yana bir nechta shahar qoldi, xolos. Shunday sharoitda Afg'onistonning o'z strategik maqsadlari doirasidan chiqib ketishini istamagan SSSR aviantyuraga qo'l urdi. 1979 yil dekabr oyida Afg'onistonning Bagrom shahriga KGBning «Musulmon bataloni» nomini olgan va asosan Markaziy Osiyo respublikalari va Kavkazdan chaqirilgan xodimlardan iborat bo'lgan maxsus bo'linmasi jo'natiladi.

1979 yil 10 dekabr kuni SSSR Mudofaa vaziri D.Ustinov Turkiston va Markaziy Osiyo harbiy okruglarini jangovar holatga keltirish haqida buyruq beradi. Shuningdek, 103-Vitebsk harbiy gvardiya havo-desant diviziyasi jangovar trevoga bilan oyoqqa turg'iziladi.

Nihoyat, 1979 yil 12 dekabrda SSSR Siyosiy byurosi Afg'onistonga qo'shin kiritish haqida qaror qabul qiladi. 1979 yil 23 dekabr kuni tunda mudofaa vazirligi Afg'onistonga qo'shin kiritishga tayyorligini ma'lum qiladi.

Oradan bir kun o'tib SSSR Mudofaa vaziri D.Ustinov «Do'st afg'on xalqiga yordam berish maqsadida mamlakat janubidagi Sovet harbiylarining bir qismini qo'shni davlat hududiga kiritishga qaror qilindi», deb yozilgan direktivani imzoladi.

1979 yil 25 dekabrda Turkiston harbiy okrugidagi 40-umumqo'shin armiyasi Afg'onistonga kiritish uchun jangovar tayyor holga keltirildi. O'sha kuni tushdan so'ng Afg'onistonga kirish uchun buyruq beriladi va SSSR harbiy bo'linmalari quruqlik va havo orqali Afg'oniston hududiga bostirib kiradi. Harakatdagi armiyaga yordam berish uchun 27 dekabr kuni O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikistondan umumiy hisobda 32 ming zaxiradagi harbiy xizmatchilar chaqirilib harbiy harakatlarga tayyorlanadi. Aholi vakillaridan va turli tashkilotlardan 9 mingta «UAZ» avtomobili harbiy harakatlarda foydalanish uchun olib qo'yiladi. O'sha paytda Amin saroyiga KGB maxsus bo'linmasi bostirib kirgani haqida hech qayerda gapirilmagan. Ommaga «Afg'on xalqi Amin saroyini zabt etib o'zini o'ldirdi», deya ma'lumot berilgan. «Pravda» gazetasi esa «Xalq isyon ko'tarib,

Aminning saroyiga (Tojibek saroyi) bostirib kirdi va Amin va uning tarafdorlarini o'ldirdi», deb yozib chiqqan. Keyinchalik, SSSR tarqab ketganidan so'ng, o'shanda Amin saroyiga bostirib kirib uni va tarafdorlarini o'ldirgan «afg'on xalqi» afg'onlar kiyimini kiyib olgan KGBning maxsus bo'linmasi xodimlari bo'lgani oshkor bo'ldi. 1979 yil 27 dekabrda Sovet Ittifoqi Afg'onistonga intervensiyasini boshladi. O'sha kuni kechqurun Sovet harbiylari "Bo'ron-333" operatsiyasini boshladilar. Unda 700 ga yaqin askar, jumladan, "Alfa guruhi" va "Zenit" guruhining 54-KGB maxsus kuchlari qo'shinlari saroyga bostirib kirib, 20 dekabr oyidan beri u yerda yashab kelayotgan PDPA bosh kotibi Hafizulloh Aminni o'ldirishdi. Amin o'ldirilganidan so'ng Babrak Kormal Bagromdagi SSSR harbiy bazasidan chiqib, Kobulga keladi va uni Afg'oniston rahbari deb e'lon qilishadi. U SSSR rahbariyatidan Afg'onistonda tinchlik o'rnatish uchun o'z mamlakatiga harbiylarni kiritishni «iltimos qiladi»[3].

SSSRga sodiq bo'lgan va Pragadagi elchilik vazifasidan Afg'onistonga kelgan B. Karmal prezidentlik lavozimiga o'tkazildi. 28 dekabrda SSSR o'z harbiy qismlarini Afg'onistonga kiritdi. Tez orada bu qo'shinlar soni 85 ming kishiga yetdi. Jahon jamoatchiligi SSSRning bu harakatini qattiq qoraladi. Ayni paytda sovet – amerika munosabatlari yanada keskinlashdi.

Sovet O'zbekiston gazetasi 1980 yil 18-yanvarda bosilib chiqqan 15-sonida Sovetlarning Afg'onistonga qo'shin kiritishini quyidagicha oqlashadi: "Afg'oniston Demokratik Respublikasining tashqi ishlar ministri (ADR) Shohmuhammad Do'st Nyu-Yorkdan jo'nab ketish arafasida TASS muhbiriga bunday dedi: mening bu yerga kelishdan maqsadim, Afg'onistondagi ishlarning hozirgi real ahvoli haqqoniy manzarasini millatlar hamjamiyatiga to'la-to'kis tasvirlab berishdan iborat edi. AQSh va Xitoy va ularning ittifoqchilari tomonidan sun'iy ravishda to'qib chiqarilgan "Afg'on masalasi" va bu masalaning BMTda muhokama qilinishi suveren davlat ishlariga qo'pol ravishda aralashuv bo'ldi. SSSRning qandaydir "aralashganligi" to'g'risidagi tuhmat bayonotlar esa mutlaqo hech qanday asosga ega emas, dedi so'zini davom ettirib ministr. Afg'oniston Revolyutsiyasining g'alabalarini yoqtirmagan imperialist doiralari va ularning ittifoqchilari Afg'oniston bilan SSSRga qarshi tuhmat va bo'hton kampaniyasini avj oldirish tashabbuskorlari bo'ldilar. Ministr o'z so'zini davom ettirib, Sovet Ittifoqining cheklangan harbiy qismlari mamlakatimiz hukumatining iltimosiga binoan Afg'oniston territoriyasida vaqtincha turibdi, deb ta'kidlaydi ministr"[4]. Bunday olib qaraganda bu keltirgan ma'lumot va undagi vajlar o'zini oqlamas-da, SSSR o'z hatti-harakatini shu yo'sinda oqlashga harakat qildi. Aslida Sovetlar tutgan yo'l - qo'shni suveren davlatga, ochiqdan ochiq, xalqaro huquq me'yorlarini buzgan holda bostirilib kirilishi edi. SSSRda bu yerda o'zining Afg'oniston Demokratik Respublikasi (1978 yil 30 apreldan (aprel inqilobi g'alabasidan keyin) 1987 yil 30 noyabrgacha) ni yaratdi va shu tariqa Afg'oniston ikki lagerga bo'lingan fuqarolar urushiga tortildi.

Afg'onistonda chiqadigan "Xaqiqati inqilob savr" gazetasi AXDP Markaziy Komitetining a'zosi, ADR Revolyutsion Kengashi Prezidiumining a'zosi, general-mayor Abdul Qodirning maqolasini e'lon qildi.

Ulug' Aprel revolyutsiyasi imperialistlarning didiga yoqmadi, deb yozadi Abdul Qodir. Ular baquvvat, ozod, gullab-yashnab turgan Afg'onistonni yoqtirmaydilar. Ular bizning xalqimiz kambag'al va savodsizligiga qolishini, Afg'oniston hukumati imperialistlarning amrini bajo keltiradigan bo'lishini xohlaydilar. Shu boisdan ham ular bizning mamlakatimizni parchalab tashlash, shaqrdagi uch yoki to'rt viloyat – Badaxshon, Kunar va Lagmon viloyatlarini ajratib olib, ulardan Xitoy bilan Pokistonga itoatgo'y davlat tuzish, G'arbda esa Xiro, Farax, Nimro'zni vatanimizdan

ajratib tashlab, ulardan o'zgalarning hukmiga yuradigan boshqa davlat tuzish rejalarini o'ylab qo'yganlar.

Mana shu makrli rejalarini amalga oshirish uchun bizning chegamizdan sotqin va qotillarning to'dalari yopirilib kela boshladilar, deb yozadi Abdul Qodir. Prezident Karter mana shulardan xabari yo'q ekanini aytmoqda, ammo u riyokorlik qilmoqda. Bizning qo'limizdagi aniq xujjatlar Amerika agentlarining Pokiston territoriyasida qo'poruvchilar tayyorlovchi 12 ta markazda ishlab turganliklaridan dalolat beradi. Bizning qo'limizda Markaziy razvedka boshqarmasi bilan Angliya josuslik mahkamasi yaqinda Peshovarda Afg'onistonga qarshi tashkilotlarning rahbarlarini to'plab, ularni "yagona blok"ka birlashtirishga harakat qilganliklari to'g'risida aniq ma'lumot bor.

1980-yil yanvar Kobulda Afg'oniston Xalq Demokratik partiyasi Markaziy Komitetning Bosh sekretari, ADR Revolyutsion Kengashining raisi Babrak Karmalning afg'on va chet el jurnalistlari uchun matbuot konferensiyasi o'tkazildi.

Erksevar va mustaqil Afg'oniston xalqi, dedi u, SSSRning respublika hukumati iltimosiga binoan ADRga o'z vaqtida bergan moddiy va ma'naviy yordami uchun o'z qo'shnisi – buyuk va tinchliksevar Sovet Ittifoqiga astoydil minnatdorchilik izhor etadi. Ayni shu yordam Amerika imperialistlari va Pekin gegemonchilarining ADR mustaqilligi va erkinligiga qarshi qaratilgan qora niyatlarini barbod etish imkonini berdi[5].

AQSh imperialistlari Pekin bilan, Sadat va Begin rejimlari bilan birgalikda mustaqil Afg'onistonga qarshi uyushtirayotgan fitnaning barbod etilganligi-Aprel revolyutsiyasi hozirgi yangi bosqichining g'oyat muhim natijalaridan biridir.

Babrak Karmal hozirgi vaqtda AXDP saflarida, davlat apparatida va armiyada birlik va jipslik vaziyati hukm so'rayotganligini ta'kidladi. Salkam bir oy ichida mamlakatda revolyutsion tartib va qonunchilik qayta tiklandi. ADR raxbar organlari nomiga kelgan o'ng mingdan ko'proq xatda mamlakat aholisi tabaqalarning vakillar – ishchilar, dehqonlar, hunarmandlar, ziyolilar va ruhoniylar, yoshlar, xotin-qizlar Afg'oniston rahbarlarini va ular ishlab chiqqan revolyutsion o'zgartirishlar katta programmasini batamom qo'llab-quvvatlayotganliklarini izhor etmoqdalar. Milliy front tuzishga tayyorgarlik ko'rilmoqda. Reaksion propaganda aldagan, Aminning xalqqa qarshi siyosati qo'liga qurol olishga majbur qilgan kishilarning ko'pchiligi endilikda ADR rahbarlarining

konstruktiv milliy demokratik siyosati natijasida o'z ixtiyorlari bilan qurollarini tashlab uy-joylariga qaytib keldilar va tinch mehnat boshlab yubordilar[6].

ADR SSSRning qardoshlaricha yordami bilan Afg'onistonning hozirgi dushmanlariga munosib zarba bermagandi, dedi u, xalqimizning asrlar bo'yi qilib kelgan orzusiga mos bo'lgan revolyutsion siljishlar va o'zgarishlar sodir bo'lmas edi.

"Mamlakatimiz tarixida birinchi marta butun xalq milliy fronti tuzilmoqda" - dedi Babrak Karmal. ADRda chinakam inqilobiy tartib va qonunchilik tiklanganligi, so'z va diniy e'tiqod erkinligi ta'minlanganligi g'oyat muhm ahamiyatga egadir. Umumiy amistiya to'g'risidagi dekret qamoqxonalarda eshigini ochdi. Ming-minglab kishilar, shu jumladan AXPDning ko'pgina a'zolari, mamlakatning haqiqiy vatanparvarlari ozodlikka chiqdilar.

Afg'oniston Xalq demokratik partiyasi Markaziy Komiteti va ADR hukumati hozirgi vaqtda kata va murakkab xalq xo'jaligi problemalarini xalq etish ustida ish olib bormoqda, dedi Afg'oniston raxbari.

Babrak Karmal o'z so'zining oxirida mamlakat mustaqilligini, suverenitetini va territorial butunligini himoya qilish ishida SSSRning ADRga bergan iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va harbiy yordami uchun afg'on xalqi nomidan Sovet hukumatiga, butun sovet xalqiga samimiy minnatdorchilik bildirdi[7].

Xalq, armiya va Xalq demokratik partiyasining birligi asosida biz g'alaba qozonishimizga shak-shubha yo'q, deyiladi murojaatda. Ammo g'alaba o'z-o'zidan kelmasligi xar birimizga ravshan bo'lmog'i kerak. G'alabaga erishmoqchi bo'lsak, Aprel revolyutsiyasining imperiazizmga va reaksiyaga qarshi kurashdagi shonli ideallarini qattiq turib ximoya qilish. ADRga Pokiston territoriyasidagi yuborilayotgan gazandalar va qo'poruvchilar shaykalarining bedodligiga chek qo'yish uchun butun kuchimizni bir joyga to'plashimiz zarur [8].

**Xulosa.** Bir qaraganda tasodifdek tuyuluvchi bu tarixiy zaruriyat – sovetlarning Afg'oniston tuprog'iga bostirib kirishiga majbur qildi. Shuningdek, bu bosqinchilikni turli minbarlarda, turli mahalliy sovet gazeta-jurnallarida sovetlarning afg'on xalqiga "baynalmilal yordami" hamda u yerga kirgan harbiylarni esa "baynalmilalchilar" sifatida baholashdi. Mustaqillik sharofati bilan tarixiy haqiqatni qaytadan tiklash va yozish vazifasi bugungi kunda muhim vazifa sifatida qolmoqda.

#### ADABIYOTLAR

1. Abdurahimov O'. Taqdir o'yinlari. (roman) Paradigma, Toshkent.2017. B.40.
2. Hafeez Malik. Soviet-Pakistan Relations and Post-Soviet Dynamics, 1947-92. p. 263.
3. Abdurahimov O'. Taqdir o'yinlari. (roman) Paradigma, Toshkent. 2017. B.31-32.
4. ADR tashqi ishlar ministrining bayonoti // Sovet O'zbekistoni. 1980-yil 18-yanvar. 15-son.
5. Revolyutsiya ishi g'alaba qiladi // Sovet O'zbekistoni. 1980-yil 30 yanvar. 24-son.
6. Babrak Karmalning matbuot konferensiyasi // Sovet O'zbekistoni.1980-yil 26-yanvar. 21- son.
7. Muhim qadamlar // Sovet O'zbekistoni. 1980 yil 31 yanvar. 25-son
8. Xalqqa murojaat // Sovet O'zbekistoni. 1980-yil 2-fevral. 27-son.